Заключение. Сегодня рассматривается вопрос об открытии в Узбекистане Узбекско-турецкого университета при участии ведущих образовательных учреждений Турции, создании новых филиалов ведущих вузов Турции в регионах Узбекистана по таким направлениям, как инженерное дело, искусство, медицина, сельское хозяйство и туризм [14].

Обсуждены перспективы углубления взаимодействия по обмену профессорско-преподавательским составом, научными работниками и студентами. В данном контексте достигнута договоренность о повышении квалификации научных сотрудников и уровня знаний и навыков студентов, а также организации лекций, практических занятий, интерактивных семинаров и тренингов между ВУЗами двух стран [15].

Дальнейшее сотрудничество Узбекистана с Турцией в и усилению здоровой конкуренции на образовательном
сфере высшего образования несомненно будет рынке.
способствовать как укреплению двусторонних связей, так

ЛИТЕРАТУРА

1. УП-60-сон 28.01.2022. О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы. // <https://lex.uz/ru/docs/5891077>
2. УП-6097-сон 29.10.2022. Об утверждении концепции развития науки до 2030 года. // lex.uz/ru/docs/5073419
3. Президент предложил объявить 2023 год Годом заботы о человеке и качественного образования. <https://www.gazeta.uz/ru/2022/12/20/year-name>.
4. Какие новые Вузы открылись в Узбекистане в этом году. // <https://kun.uz/ru/news/2022/06.text>.
5. Какие новые Вузы открылись в Узбекистане в этом году <https://www.tika.gov/tr>
6. Узбекско-Турецкого совета стратегического партнерства высшего уровня.
7. 7 Учебник «Общeturкская история» начали использовать в школах Азербайджана, Казахстана и Турции // Сетевое издание «egemen.kz». URL: <https://www.egemen.kz/article/221923-uchebnik-obschetyurkskaya-istoriya-nachali-ispolzovat-v-shkolakh-azerbayddgana-k> (дата обращения 17.08.2022. Крек Н. Тюркская история и геополитические амбиции Анкары – что между ними общего? URL: <https://www.ritmeurasia.org/news--2022-08-12-tjurkskaja-istorija-i-geopoliticheskie-ambicii-ankary-что-между-ними-общего-61414> (дата обращения: 16.08.2022). Турецкие школьники будут изучать общeturкскую историю URL: https://bigasia.ru/content/news/-science_and_education/turetskie-shkolniki-budut-izuchat-obshchetyurkskuyu-istoriyu/
8. 8 <https://www.caa-network.org/archives/category/columnistica/mnenie>
9. Стимбан А. Открытие ташкентского филиала Турецкого университета экономики и технологий TOBB ETU <https://themag.uz/post/otkrytie-tashkentskogo-filiala-tureckogo-universiteta-jekonomiki-i-tehnologij-tobb-etu23> марта 2022
10. Турецкий Университет Экономики и технологий в Ташкенте TOBB ETÜ Tashkent <https://chamber.uz/en/page/4901>
11. TOBB ETÜ Tashkent: университет, интегрированный в глобальную среду <https://tnu.tj/index.php/ru/problems-i-perspektivy-razvitiya-gumanitarnogo-sotrudnichestva-v-ramkah-shos-vzgljad-iz-dushanbe-2/>
12. Турецкий медицинский факультет – Официальный сайт Бухарского государственного медицинского института // <http://bsmi.uz/turkia-tibbiyot-fakulteti>., Семенов И.С Тюркский мир в школьном учебнике: ближние рубежи, дальние горизонты. <https://www.imemo.ru/publications/relevant-comments/text/the-turkic-world-in-a-school-textbook-near-frontiers-distant-horizons...>, 23.08.2022.
13. Узбекистан и Турция обсуждают перспективы активизации взаимодействия в сфере образования <https://yuz.uz/ru/news30> ноября 2022
14. Какие новые Вузы открылись в Узбекистане в этом году. // <https://kun.uz/ru/news/2022/06.text>.
15. Узбекистан и Турция планируют расширить сотрудничество в сфере образования 24/01/2022 www.uzdaily.uz



Karomatillo KURBONOV,
Termiz davlat universiteti 2-kurs magistranti
E-mail: qurkaromatillo5@gmail.com

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, dots. t.f.d. F.Yormatov taqrizi asosida

“SART” KIM?

Annotatsiya

Maqolada O'rta Osiyodagi savdo-sotiq, karvonboshlik, tadbirkorlik bilan shug'ullangan mintaqadagi xalqlarning madaniyati, dini, tili aralashuvi va qorishuvidan vujudga kelgan ijtimoiy toifa-sartlar, shuningdek “sart” istilohining mazmun va mohiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Savdo-sotiq, karvonboshi, savdogar, tadbirkor, ishbilarmon, shaharlik, o'troq, ko'chmanchi, yarim-ko'chmanchi, sart, sartaq, sartaq, xalq, millat, etnik birlik, antropometriya, kraniologiya, assimilyatsiya, lingvistik.

WHO IS “SART”?

Annotation

In the article, the culture of the peoples of the region engaged in trade, caravan leadership, and entrepreneurship in Central Asia. The social categories that arose from the intermingling and mixing of religion and language, as well as the content and essence of the "sart" conquest are discussed.

Key words: Trade, commerce, caravaner, merchant, entrepreneur, business man, townsman, settlement, nomad, semi-nomads, sart, sartaq, sartaq, population, nation, ethnic unity, anthropometry, craniology, assimilation, linguistic.

КТО ТАКИЕ “САРТЫ”?

Аннотация

В статье ведётся речь о "сартах" - социальном классе, происшедшем в результате смешения культурных, религиозных и языковых интерференций, живших в Средней Азии народов, которые занимались торговлей, предпринимательством и караванными грузоперевозками, также о значении и сущности названия сартов.

Ключевые слова: Торговля, старшина каравана, купец, предприниматель, деловой, горожанин, оседлый, кочевник, полукочевник, сарт, сartaq. сartaq, народ, нация, этническая общность, антропметрия, краниология, ассимиляция, лингвистика.

Kirish. Tarixda shunday atamalar borki, davrlarning o'tishi bilan mavhumligi va bahstabliligi tobora ortib, ma'no-mazmuni va mohiyati ham o'zgarib boraveradi. Shunday istilohlardan biri hozirgi integratsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liq “sart” atamasi bo'lib, aniq, ishonarli va asosli tahlil etishda jiddiy tafakkur qilmog'ni taqozo etadi. Xo'sh, aynan mana shu istiloh qancha-qancha olimlarning tadqiqotlarini qarama-qarshi fikrlarga, bahsli pallalarga burib yuborishiga qanday mavhumlik bor edi? “SHo'ro” jurnalining 1911 yil 16-sondagi: “Biz Turkiston va Buxoro xalqining turkligi ma'lum bo'lib turib... na uchun “sart” ataydurlar” [1] qabilidagi o'ksinib aytilgan fikrlarda nima nazarda tutilgan edi? Yoxud V.P. Nalivkinning rus-o'zbek tilidagi lug'atini “rus-sart lug'ati” [3] deb nomlanishida siyosiy o'yinning bir qarashda ko'z ilg'amas sinoati bormikan? Xullas ana shunday mavhumlik tubsiz ilm ummoni qa'riga yetaklaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dastlab “Sart” etimologiyasi haqida to'xtalar ekanmiz, sanskritcha “sarhava” so'zidan kelib chiqib, “savdogar” ma'nosini bildirishini ta'kidlash joizdir. Bundan tashqari, makedoniyalik Iskandar O'rta Osiyoni zabt etgach, koloniyasiga aylangan hududni Sartania deb nomlagan. Bu ham bevosita savdo so'ziga bog'liqdir. Chunki makedoniyalik askarlar o'z ehtiyojlari uchun zaruriy buyumlarni sotib olganlar va ularga nisbatan Sartania so'zini ishlatganlar. “Sart” so'zini sartaq, so'ng sog'dak va so'g'd [4] so'zlariga bog'liqligini mantiqiy ketma-ketlik asosida tahlil etarkanmiz, so'g'dlarning azaldan savdo-sotiqning mohir egalari ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, savdogar, tadbirkor, ishbilarmon ma'nolari kelib chiqadi. “Sart” atamasi ko'p ma'noli va murakkab logikaga ega bo'lib[5] asosiy ma'nolaridan biri savdogar, karvonboshi, tadbirkor, ishbilarmon va shunga o'xshashdir. Buni turkiy tilli

manbalar ham tasdiqlaydi. Masalan, bu so'z Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'atit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”[6] asarlarida keltirilgan bo'lib, savdo bilan shug'ullanuvchi kishi nazarda tutilgan. Qoraxoniylar davlatida ham savdogarlar “sart” deb atalgan [7].

Aslida sart kim? Fransuz sayyohi Ioann de Plano-Karpini 1246-yilda Rossiya orqali Mo'g'ulistoniga boradi va Chingizxon tomonidan bo'ysundirilgan xalqlar: xitoylik, merkit, turkman, bolgar, arman, fors, hindlarni o'zining xotiralarida “sart” deb yozgan[8]. Mo'g'ullar O'rta Osiyoni bosib olgach, hayratlanarli sug'orish tizimini yo'lga qo'ygani mahalliy xalq - musulmonlarni “sartaq” deb atagan. Alisher Navoiy o'zining “Muhokamat ul-lug'atayn” asarida “Sort orasida iste'dod-u bilim egalari... ko'proqroqdir. Ular “bez”ni “g'udud”, “bigiz”ni “darafsh” ...deydilar.” deb fors-tojiklarni nazarda tutgan[9,10]. Muhammad Jolabiyning “Lahnat-ul-lug'ot”ida, Muhammad Ya'qub Jangiying turkcha-forscha lug'atlarida tojiklar “sart” deb nomlangan[11]. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining “Boburnoma” kitobida “O'rotepa, Qobul, Marg'ilon, Isfarada sortlar soni ko'p”, deb zikr etib, Samarqand va Buxorodagi marg'ilonliklarni sort deb atagan [12].

Markaziy Osiyoda turkiy qavmlarning faolligi kuchayishi bilan “sart” ning tarkibiy qismi ham o'zgarib borgan. Endilikda nainki bitta millat, balki bir necha millatlarning etnografik konglomeratligini kuzatishimiz mumkin. Naqadar “sart” masalasi bahsli va munozarali bo'lmasin, Markaziy Osiyodagi o'zbek, qirg'iz, tojik [13] va shu kabi millatlarning madaniyat, til ijtimoiy munosabatlardagi aralashuvi hosilasi bilan birga o'troq yashaydigan, savdo bilan shug'ullanuvchi, shaharda yashovchi mulkdor tabaqa tushuniladi. S.N. Abashinning fikricha,

“oyratlar ichidagi qirg'izlar va o'zbeklar sart-qalmoq deyilgan. Sart-qalmoqlarning qo'rg'onlari toshlardan qurilib, mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Oldida bog'lari bor. Imoratlarida ichida ikki qavatli kam emas. Sevimli, asosiy nonlari tandirda pishiriladi”[14]. Demak, sartlar o'troq yashagan. Chunki yuqorida zikr etilgan bog'lari, qo'rg'onlari, uy va uylarida tandirlarining mavjudligi bir joyda muqim yashaydigan xalqlarga xosligidan dalolatdir.

S.Abashin va V.Bushkovning qarashlariga tayanib, o'zbek sotsiologi A. Joldasov Turkistonning musulmon aholisini dastlab “sort” tushunchasi bilan ta'kidlaganini sharhlaydi.

Tahlil va natijalar. Asosan Markaziy Osiyo xalqlarining jo'g'rofiy joylashuv nuqtai nazaridan tahlil etganda, Sirdaryo viloyati, Farg'ona vodiysi va Amudaryo bo'limida yashovchi aholi o'zinini toshkentlik, qo'qonlik deb tanishtirganini, lingvistik jihatdan kuzatganimizda o'zlarini o'zbek, tojik, qirg'iz, qozoq kabi millat vakili deb bilishlarini ko'rishimiz mumkin bo'lsa, aholini ijtimoiy ahvoli, xo'jalik hayotini nazarda tutganda ko'proq sart so'zi bilan ifoda etilganini mushohada etamiz. Har bir hududda yashovchi sartning tili bir-biridan farq qilgan. Masalan, Samarqand, Buxoro va Xo'jand sartlari tojik tilida, Toshkent, Qo'qon va G'ulja sartlari turk va o'zbek tilida [8], Qirg'izistonda yashovchi sartal qalmaq tilida gaplashgan. Hatto sartalning yozuvi arab va fors yozuvi asosida [17] bo'lmasin, ular birbirlarining tillarini tushunishmagan[18]. Garchand N.Ostroumov o'z tajribalari asosida sartalarni o'zbek-tojiklardan farqlanuvchi antropometrik va kraniologik belgilarini izohlab [8] alohida xalq sifatida talqin qilgan bo'lsa-da, G. Lers o'zining “Das Russische Turkestan” maqolasida “sartlar zinhor qabila nomini ifoda etmaydilar, balki madaniy-tarixiy jarayonlarda shakllangan ijtimoiy tabaq”, deya baho bergan[19].

Qo'qon xonligi ruslarning ta'sir doirasiga tushgach, Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi va uning fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatda millati sifatida sart yozuvi mavjud edi. Turkistondagi teatlarda xorijiy adabiyotdagi pyesalar qo'yilganda ham “sartcha tarjima”, deb sahnalashtirganlar. Masalan, “Toshkentning ulkan “Kolzey” teatrida ozarbayjonchadan sart tiliga tarjima qilingan “O'liklar” pyesasi qo'yildi” [20,3] deb, Avloniyning o'zbekcha tarjimasini nazarda tutganlar. O'lkaga ruslarning kirib kelishi bilan “sart” atamasi qayta “tug'ildi” va ma'no va mohiyati ham avvalgisidan ancha farq qildi. Barcha mustamlakachilik siyosatiga xos bo'lgan o'zga millatlarga nopisand munosabat chor hukumatining siyosati darajasiga ko'tarilgan edi. O'zbeklarni “sartlar”, qozoqlarni “qirg'izlar”, qirg'izlarni esa “qora qirg'izlar” [2] deb, Turkistondagi millatlarni tarixiy tarkib topishi, boy tarixiga yetarlicha baho bermasdan, buzib nomlaganlar. Zero, har bir xalq o'zining tarixi bilan faxrlanadi, millati bilan ulug'lanadi, ona tili orqali ajdodlar ruhi bilan bog'lanadi. Bunday ma'naviy xususiyatlardan mosuvo etmoq, har qanday xalq va millatning ma'naviy qiyofasini tiklanmaydigan darajada buzmoq, uning tarix sahnasidan batamom va izsiz yo'qolmog'i bilan barobardir. Rus imperiyasi davrida N. Ostroumov sartalarni maqol va topishmoqlarini o'rganib [21], yuksak badiiy mahoratga ega xalq deb, S. Abashin esa sartalarni “imperiya ichidagi Turkistonning kelajak xalqi” [22] deb baho bermasin, sartal haqidagi salbiy qarashlar o'z “qobig'i”ga o'ralib bormoqda edi. Buni o'sha davrda tadqiqotchilardan tashqari, O'rta Osiyoni bosib olishga kelgan rus zobitlari ham “sart” atamasini tahqirli, nafratlanuvchi ibora, deb bilganlar ham talaygina bo'lgan. Jumladan, harbiy mutaxassis Konstantin Girshfeld “sart - shaharliklarning haqoratimiz laqabidir”, deb fikrimizni tasdiqlaydi [23]. Buning bir qator sabablari mavjud edi:

birinchidan, Turkistondagi savdo majmualari, asosiy daromad keltiruvchi mulklar, sug'orish tizimlari, hosildor

yerlar, tegirmonidan tortib moyjuvozigacha qadar, ariqlar va bozordagi mavjud hunarmandchilik mahsulotlarining aksariyati tub joyliklar nazorati ostida edi [24]. Bu ayniqsa, yo'qsilligi bois kamsitilgan “ikkinchi darajali millat”-ko'chmanchi qabilalarga ma'lum toifadagilar qo'lida katta boyliklarning to'planishiga moneligi asnosida vujudga kelgan nafrat hissi edi;

ikkinchidan, Rus imperiyasidagi 1867-1881-yillardagi ko'chirish siyosati hamda 1873-yilda K.P. Kaufmannning “Yer haqidagi Nizom” va 1886-yil 12-iyuldagi “Nizom”da nazarda tutilgan “o'lkaga ko'chib keluvchilarga yer ajratish masalasiga”[25] qarshi mahalliy o'trok xalqning noroziligi tufayli chor ma'murlaridan haq-huquqlarini talab qilgan mahalliy xalqqa nisbatan shakllangan adovat tuyg'usi edi;

uchinchidan, o'lkaning boshqa xalqlari bilan qo'shilib ketgan qadimiy aholining ajdodlari, mahalliy o'troq xalq-sartlarning asosiy daromad manbai bo'lgan qo'l mehnatiga asoslangan hunarmandchilik buyumlari O'rta Osiyoning bozorlarini egallagan sanoat to'ntarilishi natijasida yaratilgan sifatli Ovrupo mahsulot va tovarlari oldida “yaroqsiz”ga aylanayotgan edi. Natijada bozori kasodga aylanayotgan ba'zi sartal sudxo'rlik, xasislik, riyokorlik illatlariga muhtalo bo'layotgan edi [24,407]. Bu esa boshqalarning ularga nisbatan salbiy fikrlarda bo'lishiga olib keldi;

to'rtinchidan, mahalliy xalq o'zining mentalitetidan kelib chiqqan, garchand stixiyali bo'lsa ham, mahalliy boshqaruvi ega edi. Biroq bu mustamlakachilik siyosatining boshqaruv usullari bilan nomutanosiblikda edi. Shuning uchun ba'zi sartal, shu jumladan, Sirdaryo bo'yidagi sartal ilgari o'troq hayotidan voz kechib, ko'chmanchilik hayotiga o'tgan bo'lsa, ba'zilari savdogarlikdan hammollik bilan shug'ullana boshladilar [2], regressiv jarayonlarni boshidan kechirayotgan edilar. Shu tariqa sartal (xususan, Qo'qon xonligida) davlatning siyosiy boshqaruvi faollikni qo'ldan boy berdilar [24]. Yuqorida zikr etilgan sabablarga ko'ra, sartal to'g'risidagi qarashlar o'zgardi. Tadqiqotlarda ham izlanuvchilar sart istilohi haqida turli talqin va ta'riflarni taqdim etdilar. “SHo'roi ulamo” rahbari SHERALI LAPIN (1868-1919)ning ta'biri bilan aytganda, “sart masalasi hanuzgacha hal bo'lmagan”.

O'rta asrlarga kelib sartalga musulmon [8,7], tadbirkor, hunarmand [27], shaharlik, boy degan tariflar ham qo'shilgan. Yangi davrlarga kelib, sartalarni hozirjavob, hazil-mutoyiba ustasi sifatida [28-110] hamda ishbilarmon sifatida ham bilganlar. Masalan, XIX asrning 70-yillarida Qo'qon xonligida bo'lgan A.P.Xaroshkin xonlik aholisining savdosotiqqa bo'lgan munosabati haqida “20-30 rubl puli bo'lgan sart darrov tijorat ishlariga kirishadi”,-deb yozgan edi [29]. Ushbu davrda xonlikdagi narx-navo holati bilan taqqoslaganda, 8-9 metr atlas 7-8 rubl, 160 dona vara qog'oz 1 rubl, 1 pud bug'doy, 1 pud guruch 1 rubl bo'lganligini inobatga olsak, sartning tadbirkor, ishbilarmon, tirishqoqligini mushohada etish mumkin.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, sartal yagona xalq sifatida emas, balki O'rta Osiyodagi elatlarning assimilyatsiyasi natijasida paydo bo'lgan bo'lib, bir qancha elatlarning tili, dini, urf-odatlarini aralashuvi va qorishuvi asosida shakllangan, obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, ma'lum bir ijtimoiy toifani tashkil etgan etnik birlikdir. Oktabr inqilobidan so'ng, eski tartibotlar o'rniga yangi tartibotlarning o'rnatilishi, milliy-hududiy chegaralanishning o'ziga xos jihatlaridan millatlarning asosiy qismi joylashgan hududni o'sha xalq nomi bilan ataluvchi davlatlarni tashkil etilishi bois sartal hozirgi tojiklar, o'zbeklar va qirg'izlar tarkibiga singib ketdi. “Sart” atamasini tadqiq etish asnosida tariximizning mavhum sahifalarini yanada aniqroq hamda teranroq o'rganish mumkin hamda shonli tariximizda yangi sahifalarni ochish imkoniyatlari yaratiladi.

ADABIYOTLAR

1. شورا چورنلى . وقت نشرياتى . 16 غدد 1911 . 504 صحيف
2. Қосимов Б., Юсупов Ш. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Т.: Маънавият, 2004. -461 б.
3. Наливкин В.П. Руководство практическому изучению сартовского языка. –Самарканд, 1896. -338 с.
4. Бартольд В. В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. –Алматы: ТОО «Жалын», 1998. - 192 с.
5. Туркестанские ведомости. 1894 г.22 май (3 июня) № 36
6. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. –Т.: Юлдузча, 1990. -188 б.
7. Сағдуллаев А. Аминов Б. Мавлонов Ў. Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат жамият тараққиёти. 1 қисм. – Тошкент: Академия, 2000.
8. Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. 2 изд. –Ташкент, 1896. -272 с.
9. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. –Т.: Тафаккур, 2014. -143 б.
10. Навоий асарлари учун қисқача лугат. –Т.: Фан, 1993. -374 б.
11. Шукурзода Мирзо. Точик-точдор, точвар. –Душанбе: Адиб, 1990. -126 с.
12. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент: Юлдузча, 1989. -387 б.
13. صحيفه 920 -Chicago Natural History Museum.-1939. هنرى فيلد مردم شناسى ايران .
14. Нанзатов Б., Содномпилова М. Каракольские сарт-калмаки (полевые очерки). //Tartaria magna. 2012. №2. -169 с.
15. Alymbayeva A.A, Between Sart,Kalmak and Kyrgyz. Identity Dynamics in Kyrgyzstan. Internationales Asienforum. Vol.47 (2016). 101 page.
16. 2016 جواد مرشدلو نيميم ز تركستان نيميم ز فرغانه . دكتورى تاريخ ايران اسلامى دانشگاه تهران
17. Алексеев З.А. Самоучитель сартовского языка. Чтение, письмо и грамматика сартовского языка. –Ташкент, 1884. - 210 с.
18. Остроумов Н.П.Сарты. Этнографические материалы. 3 изд. –Ташкент, 1908. -296 с.
19. Шишов А. Сарты. Этнографическое и антропологическое исследование. –Тошкент, 353 стр.
20. Самойлович А. Драматическая литература сартов. –Петроград, 1917. -14 с.
21. Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. Пословицы и загадки сартовъ. –Ташкент, 1895. -174 с.
22. Sergej Abašin, «Les Sartes, un peuple d’avenir»: l’ethnographie et l’Empire au Turkestan russe», Cahiers d’Asie centrale [En ligne], 17/18 | 2009, mis en ligne le 26 mai 2010, Consulté le 16 septembre 2012. -379 pp
23. Гиршфельд К. (и Галкин). Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Составил ген. штаба кап. Гиршфельд. /Переработано нач. Аму-дарьинского отд. ген. майором Галкиным. –Ташкент: Часть I -1902, часть II – 1903.
24. Южаков Ю. Сарты или таджики, главное оседлое население Туркестанской области. (Отечественные записки) 1867. -432 с.
25. Murtazayeva R. O`zbekiston tarixi II-jild (XIX asr II yarmi-1991-yil). –Toshkent: “VNESHINVESTPROM, 2019. - 375 b.
26. Murtazayeva R. O`zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. –Toshkent: “Go To Print”, 2020. -342 b.
27. Садриддин Айни. Ёддоштҳо. –Душанбе, 2009. -680 с.
28. Издаваемим под редакцию управляющего отделением В.Р.Розена. /Записки Восточного отделения императорского русского археологического общества. Том пятый. Вып. 1-4. 1890. -354 с.
29. Мадрахимов З. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари тарихи. –Т.: YANGI NASHR, 2014. -173 б.



Izatio OMONOV,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: izzatio1989@mail.ru.

NamDU dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) B.R.Xalmuratov taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA TEMIR YO'L TRANSPORTI TIZIMINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI (ROSSIYA IMPERIYASI DAVRI MISOLIDA)

Аннотация

Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida sodir bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar jarayonida temir yo'l transporti tizimining tutgan o'rniga doir ma'lumotlar aks etgan. Maqolada muallif asosiy e'tiborni Turkistonda dastlabki temir yo'llarni qurilishining o'lkada ijtimoiy jarayonlarga ko'rsatgan ta'siri ochib berishga qaratgan.

Kalit so'zlar: Turkiston o'lkasi, Rossiya imperiyasi, transport tizimi, temir yo'llar, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, tog'-kon sanoati, qurilish ishlari, temiryo'l bekatlari.

ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ ЭПОХИ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ)

Аннотация

В данной статье содержится информация о роли системы железнодорожного транспорта в процессе экономических и социальных изменений, происходивших в Туркестане в конце XIX – начале XX века. В статье автор сосредоточился на выявлении влияния строительства первых железных дорог в Туркестане на социальные процессы в стране.

Ключевые слова: Туркестанская земля, Российская империя, транспортная система, железные дороги, социально-экономические процессы, горнодобывающая промышленность, строительные работы, железнодорожные станции.

ESTABLISHMENT AND DEVELOPMENT STAGES OF THE RAILWAY TRANSPORT SYSTEM IN UZBEKISTAN (IN THE EXAMPLE OF THE ERA OF THE RUSSIAN EMPIRE)

Annotation

This article contains information about the role of the railway transport system in the process of economic and social changes that took place in Turkestan at the end of the XIX century and the beginning of the XX century. In the article, the author focused on revealing the impact of the construction of the first railways in Turkestan on social processes in the country.

Key words: Turkestan land, Russian Empire, transport system, railways, socio-economic processes, mining industry, construction works, railway stations.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida dunyo siyosiy qiyofasini o'zgartirishga sabab bo'lgan, tarixiy jarayonlar jadal kechgan Turkiston o'lkasi aholisi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida chuqur tarkibiy o'zgarishlar yuz bergan hudud sifatida tadqiqotchilarning diqqat markazida alohida o'rin turadi. Shu bois, Turkiston o'lkasi aholisi turmush tarzidagi ushbu davrga oid etnomadaniy jarayonlar tarixini o'rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Rossiya imperiyasi Turkistonni istilo etgach, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar bilan birga etnomadaniy jarayonlarga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Uzoq asrlar davomida shakllangan etnomuloqotda ham tashqi ta'sir sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Shuningdek, XIX asrning so'nggi choragi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida dastlabki temir yo'llarning qurilishi o'lka xalqlarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim o'zgarishlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi [1].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur maqola umumqabul qilingan metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik va ilmiy xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida sodir bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar jarayonida temir yo'l transporti tizimim mustaqillik yillarida amalga oshirilgan bir qator tadqiqotlarda tarixiy aspektida o'rganilgan bo'lib, ularda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda ilk temir yo'llar qurilishi jarayoni A. G'ofurjonov, A.

Tog'ayeva, Sh. G'afforov, S. Shodmonova tadqiqotlarida xronologik tartibda bayon qilingan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ma'lumki, transport qatnovi tizimi xalq xo'jaligida ichki va tashki savdoni rivojlantirishda muhim tarmoq hisoblanadi. Ichki va tashqi yuklarni tashish, yo'lovchilarni tashish, hududlar ichidagi va hududlararo qulay arzon transport qatnovi yo'lga qo'yish o'lka iqtisodini rivojlantirishda juda muhim hisoblanadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda temir yo'l alohida ahamiyatga ega. Temir yo'l transporti boshqa transport turlariga nisbatan xizmatlarining arzonligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston hududiga temir yo'llarni kirib kelish Chor Rossiyasining O'rta Osiyo hududlarni bosib olganidan so'ng kirib kela boshladi.

XIX asrning birinchi choragiga qadar tarixda asosan transport vositasi sifatida ot-ulov va tuyalardan foydalangan. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida kapitalizmning rivojlanishi yuk aylanmasini ortib borishi natijasida transportning yangi turlari paydo bo'la boshladi. Temir yo'lni ham paydo bo'lishi yirik sanoat taraqqiyoti ayniqsa, tog'-kon va metallurgiya sanoatini taraqqiyoti bilan bog'liq. Jumladan, jahon transporti rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan temir yo'l transporti Angliyada 1825-yilda paydo bo'ldi. Ushbu temir yo'l J. Stefenson tomonidan qurilgan temir yo'l uzunligi 21 km bo'lgan. Shundan so'ng, XIX asrning 30-yillaridan boshlab Avstriya, Germaniya, Belgiya, Fransiya va Rossiya so'ngra boshqa davlatlarga qurila boshladi. XX asr boshlariga kelib jahondagi temir yo'llar tarmog'i 1 mln km dan oshdi [2].

1881–1899- yillarda Kaspiy dengizi qirg'oqlaridan Toshkentgacha bo'lgan masofada barpo etilgan, o'lkadagi ilk

temir yo'l tarmog'i hisoblangan O'rta Osiyo temir yo'li hamda 1901-1906 yillarda qurilgan Toshkent-Orenburg, 1899-1902 yillarda Qo'qon-Andijon temir yo'llari Rossiya imperiyasining siyosiy, harbiy-strategik va iqtisodiy manfaatlarini mustahkamlash bilan bir qatorda, o'lka iqtisodiyotida ijobiy o'zgarishlarning ro'y berishiga turki berdi [3].

O'zbekistondagi dastlabki temir yo'l 1886-1888-yillar davomida Samarqandgacha qurib keltirilgan. XIX asrning 80-yillari oxirlariga kelib Rossiya firmalari O'rta Osiyoda o'z vakillari agentliklari va omborlarini ochdi. Natijada, rus zavod- fabrikalarida ishlab chiqarilgan buyumlarni Turkiston bozorlarida sotishdan tashqari ushbu korxonalar uchun arzon narxda paxta jun ipak va boshqa turli xomashyolarni sotib olish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

1895-yilning 27 mayida Samarqand-Andijon yo'nalishini Toshkent shoxobchasi bilan qurishga qaror qilindi, 21 sentyabrda esa bu yerda qurilish ishlari boshlandi. 1897-yilda Qo'qonga birinchi poyezd keldi. 1899-yilda Toshkentgacha temir yo'l qurib bitkazildi [4]. Samarqand-Toshkent yo'nalishining uzunligi 357, Ursatevdan Andijon stansiyasigacha bo'lgan masofa esa 325 kmni tashkil etdi.

Shuningdek, Kaspiy temiryo'li 1898-yilda Toshkent va Andijongacha cho'zilgandan keyin mahalliy xalqlarni ham iqtisodiy ham siyosiy jihatdan ezish kuchaydi. Kaspiyorti va Samarqand-Andijon-Toshkent yo'nalishlari dastlabki-yillarda mustaqil temir yo'llar sifatida faoliyat yuritgan edi. Ularning har ikkisi ham hamon harbiy vazirlik tasarrufida edi. Biroq, bu holat bir qator qiyinchiliklarga sabab bo'layotgan edi, chunki, Rossiyaning qolgan barcha yo'llari aloqa yo'llari vazirligi ixtiyorida bo'lib, mazkur yo'llarni boshqarishda noqulaylik yuzaga kelayotgan edi. Yuzaga kelgan holatni bartaraf etish maqsadida 1898-yilning dekabrda mahsus hukumat komissiyasi chaqirildi va u Kaspiyorti harbiy temir yo'lini harbiy vazirlik ixtiyorida aloqa yo'llari vazirligi tasarrufiga olib berishning asosiy shartlarini ko'rib chiqdi.

O'rta Osiyo temir yo'li o'lkadagi eng zamonaviy kommunikatsiya tizimi sifatida Turkiston iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuni qayd etib o'tish lozimki, o'lkadagi ilk temir yo'lining qurilishi va ishga tushirilishi o'lka iqtisodiyotiga ziddiyatli ta'sir ko'rsatdi. Bir tomondan, temir yo'lining qurilishi Turkistonning mustamlakachilik asoratiga yanada chuqurroq tortilishiga olib keldi va Rossiyaning o'lkadagi mavqei mustahkamladi – imperiyaning Turkistondagi harbiy-strategik holati barqarorlashdi, o'lka boyliklaridan Rossiyaning sanoat manfaatlarini yo'lida foydalanish uchun imkoniyatlarga keng yo'l ochib berildi. O'rta Osiyo temir yo'lining qurilishi o'lkada imperiyaning ruslashtirish siyosatini olib borilishida muhim rol o'ynadi.

Ikkinchi tomondan, O'rta Osiyo temir yo'lining qurilishi o'lka iqtisodiyotining turli sohalarida, jumladan, sanoat va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishining rivojlanishiga, savdo munosabatlarining takomillashishiga, ichki va tashqi savdoning intensivlashuviga, shuningdek, madaniy aloqalarning kuchayishiga olib keldi. Temir yo'l qurilishi natijasida, ayniqsa, o'lkaning Rossiya imperiyasi bilan bo'ladigan iqtisodiy va savdo aloqalari, o'zaro mahsulot ayirboshlashuv jarayonlari kuchaydi.

Chor Rossiyasi tomonidan bir necha yillar oralig'ida temir yo'llarni qurish bo'yicha bir qancha iltimosnomalar natijasida temir yo'llarni qurilishi bo'yicha qarorlar qabul qilingan. Rossiyalik tadbirkor Ya. Rextzamer Namangandan Qo'qongacha temir yo'l shoxobchasini qurish bo'yicha iltimosnoma bilan murojat qildi. Agarda ushbu loyiha amalga oshiriladigan bo'lsa, 85 yildan keyin butun inshootlarni harakat tarkiblari bilan birga davlat foydasiga o'tkazish majburiyatini ham olgan, uning vafot etishi loyihani amalga oshmay qolishiga sabab bo'ldi. 1901-yilda Rossiya harbiy vazir Turkistonda bo'lgan vaqtda Qo'qon-Namangan temir yo'li qurilishi masalasi haqida qaror qabul qiladi. Qarorga ko'ra, temir yo'l qurilishi uchun yetarli mablag' topa olsa

iltimosnoma qanoatlantirishiga qaror qilingan edi. Kerakli mablag'ni o'z vaqtida yig'ishga erishilmadi va o'lka general-gubernatori 1902-yilda may oyida davlat hisobidan temir yo'l qurilishi to'g'risida iltimos qilgan. Ushbu iltimosnomaga hukumat tomonidan ijobiy yondashuv bo'lmadi, sabab Boltiq bo'yida temir yo'l qurilishini nihoyasiga yetkazish vazifasi turardi. 1902-yilda toshkentlik rus savdogari R. Shuberd Qo'qon-Namangan temir yo'li qurilishini moliyaviy mablag' bilan taminlashni o'z zimasi olish istagini bildirdi [6]. Lekin bu taklif u temir yo'l qurilishi bo'yicha mutaxassis bo'lmaganligi sababli inobatga olinmagan.

1902-yilda muhandis A. N. Kovalevskiyning Qo'qon stansiyasidan to Namangan stansiyasigacha temir yo'l qurish to'g'risida bergan iltimosnomasi ko'pchilik tomonidan qo'llab quvvatlangan edi. Biroq muvaffaqiyatga erish unga oson kechgani yo'q, A. N. Kovalevskiy 1903-yil davomida temir yo'l qurish bo'yicha loyiha ishlab chiqdi. 1904-yilning bahorida harbiy vazirlikga tayyorgarlik ishlari davlat tomonidan hech qanday kafolatsiz xususiy tadbirkorlar hisobidan amalga oshirishni ma'lum qiladi [7]. Shundan so'ng uning loyihasi Farg'ona viloyati boshqaruvida O'rta Osiyo temir yo'li va boshqa idoralar vakillari ishtirokida keyin Peturburg yangi temir yo'llar qurilishi bo'yicha komissiyasida ko'rib chiqiladi. Ammo temir yo'l qurilishi Rus-yapon urushi sababli moliya vazirligi tomonidan ko'rib chiqilishi kechiktirildi. Namangan-Qo'qon temir yo'lining qurilishini yangi bosqichi 1906-yilning bahorida boshlanib yana har xil tuzilma va tashkilotlarga so'rovnomalarda jo'natish, Qo'qon-Namangan temir yo'lini qurish bo'yicha aksiyadorlik jamiyatining nizomi taqdim etish, 1906-yil iyun oyida esa davlat bankiga zarur pul garovini berish ishlari amalga oshirildi. Nihoyat, 1907-yil iyulida bu temir yo'llar qurilishi bo'yicha komissiya yangidan to'plangan komissiya ishiga Qo'qon-Namangan temir yo'lini qurishga konsepsiya berilishi to'g'risidagi iltimosnomasini ko'rib chiqish topshirildi.

Qo'qon-Namangan temir yo'li jamiyatining nizomiga ko'ra: tasischilar 6 oy mobaynida aksiya kapitalining kamida 50 foizini to'lashsa jamiyat mavjud deb hisoblanadi. Qo'qondan Namanganga qadar temir yo'ning uzunligi 86 chaqirim va qiymati 4 mln rubl bo'lgan temir yo'lini qurish va ekspluatatsiya qilish uchun aksiyadorlik jamiyati tuzish mumkin deya e'tirof etilgan. Temir yo'l qatnovi yo'lga qo'yilgan kundan e'tiboran 81 yil davomida egalik qilish huquqini qo'lga kiritdi. Ushbu jamiyat 5 nafar direktordan va 3 nafar direktorlikka nomzoddan iborat bo'lgan.

Asosiy kapitalni aksiyalar va oblikatsiyar tashkil qilib uning miqdori 1 mln 516 ming rublni tashkil etgan. Ushbu nizomni tasdiqlash uchun bir yil vaqt ketdi. Davlat kengashi tomonidan qaror 1908-yil 29-mayda qabul qilinib, uning uzil-kesil tasdiqlanishiga, 1908-yil 14-iyulda erishildi. 1909-yil 14-yanvarda ustav e'lon qilingan. Aksiyadorlik kapitali badalining yarmisini to'plash muddati 1909-yilning 14-iyuli etib belgilangan edi. O'sha paytda Rossiya-Xitoy bankining Samarqand bo'limi bilan Kovalevskiyning joriy hisob raqamiga kelib tushuvchi badallarni qabul qilish to'g'risida bitim imzolangan. 1909-yilning yoziga kelib jamiyat aksiyalariga oldindan amalga oshirilgan obuna 1 mln rublga yetdi, lekin mablag' yetarli emas edi. Shuning uchun ham moliya va temir yo'llar vazirliklari aksiyadorlik jamiyati kapitalining 50 foizini to'lashni 6 oyga, ya'ni 1910-yil 14-yanvarga qadar kechiktirish to'g'risida A. Kovalevskiy iltimosnomasini inobatga oldi. 1910-yil martda zarur kapital nihoyat to'planib, 1910-yil 13-aprelda aksiyadorlik jamiyatining yangi ustavi tasdiqlangan, 1910-yil 22-iyunda o'zlari sotib olgan aksiyalar soni bo'yicha 516 ovoz huquqiga ega bo'lgan. 12 aksiyadorning birinchi umumiy yig'ili bo'lib, jamiyat rahbariyati saylandi va uning Peturburgdagi manzili belgilandi [8].

Qo'qon-Namangan temir yo'l qurilishiga 1911-yil 11-mayda kirilishib bu ish 1912-yilning iyunida ya'ni belgilangan

muddatdan 1 yil ilgari nihoyasiga yetkazildi. Keyinchalik Qo'qon-Namangan temir yo'li jamiyatining nomi Farg'ona temir yo'li jamiyati deb o'zgartirilgan. Qo'qon-Namangan temir yo'lining qurilishini boshlanishi davrida A. Kovalevskiy Uchqo'rg'on qishlog'i orqali Andijonning Xaqlobod qishlog'igacha bo'lgan qariyb 60 chaqirim yo'l qurish bo'yicha tadqiqot qidiruv ishlarini paralell tarzida olib borishga ruxsat berish to'g'risidagi Temir yo'llar vazirligiga iltimos bilan murojat qilib bunga ham muvoffaq bo'lgan edi. Shu bilan birga u 1911-yil avgustida Andijon- Qo'qon qishloq temir yo'l shoxobchasiga ega bo'lgan, Namangan-Jalolobod yo'nalishi bo'yicha 122 chaqirimlik temir yo'l qurilishi uchun tadqiqot qidiruv ishlariga Temir yo'l vazirligidan ruxsatnoma olgan edi. Bu yo'nalishda muhandis T. F. Kuryuger boshchiligidagi tadqiqot qidiruv ishlari amalga oshirilib, 1912-yilning 12-yanvarida nihoyasiga yetkazildi [9].

Bundan tashqari, Kovalevskiy 1913-yil 2-mayda olgan ruxsatnomaga muvofiq 1914-yil 1-mayda Namangan-Jalolobod temir yo'lini qurishga kirilishib 2 yildan keyin belgilangan muddatdan 1 yil oldin bu yo'nalishda poyezdlar harakati boshlandi. Bu temir yo'l qurilishlaridan nafaqat aksiyadorlar balki yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Chor hukumati o'lka mustamlaka ma'muriyati rus zavodchilari ham manfaatdor edilar. Turkiston general-gubernatori A. V. Samsonov temir yo'l shoxobchalari orqali Norin daryosi bo'yab joylashgan Maylisoy neft va toshko'mir konlaridan olinadigan mahsulotlarni markazga olib ketish imkoniyatlarini ko'payishiga ishora qilgan. Chor ma'murlarining fikricha, temir yo'llar Xitoy, Afg'oniston va Pomir yaqinidagi chegaralarda Rossiya mavqeyini mustahkamlash lozim edi. Rossiya to'qimachilik sanoatining rivojlanish va paxta ekin maydonlarinig kengayib borishi ham to'qimachilik sanoatining kerakli xom-ashyo bilan ta'minlay olmadi. Shu sababli chor hukumat tomonidan Farg'ona vodiysida yangi paxta ekin maydonlarini o'zlashtirishga katta e'tibor bera boshladi. Shu bilan birga Farg'ona vodiysida yangi temir yo'l shoxbchalari qurish borasida rus xususiy tadbirkorlarini tashabusi qo'llab quvvatlagan edi. 1913-1916-yillarda vodiyning tabiiy va xom-ashyo zaxiralariidan ko'proq foydalanish maqsadida Qo'qon-Namangan-Andijon-Jalolobod temir yo'li ishga tushirildi.

XX asrning 20-yillaridan boshlab Rossiya fuqarolar urushi yillarida vayron temir yo'l harakat tarkibi va yo'l xo'jaligini tiklash uchun zarur choralar ko'rildi. Shaharlarni birlashtiruvchi yangi temir yo'l liniyalarini qurilishiga ham

e'tibor berildi. 1922-yilda Farg'ona-Quvasoy, 1924-yilda Qarshi-Kitob, 1925-yilda Amudaryo-Termiz, 1931-yilda Asaka-Shahrixon temir yo'l liniyalari qurilib foydalanishga topshirildi [10].

Farg'ona vodiysi tabiiy va xom-ashyo zaxiralariidan ko'proq foydalanish maqsadida Qo'qon-Namangan-Andijon-Jalolobod temir yo'li ishga tushirildi. Keyinchalik Shaxrixon, Asaka va Paxtaobod kabi shaharlar shu yo'l bilan bog'lanishi natijasida «Farg'ona xalqasi» vujudga keldi. Natijada, hudud qiyofasi tubdan o'zgardi hamda yangi joylar o'zlashtirildi, temir yo'llar kirib kelishi bilan yangi iqtisodiy munosabatlar ham shakllana boshladi. Andijon, Fargona, Qo'qon kabi yirik transport markazlari shakllana boshladi. Bu Temir yo'llar Rossiya imperiyasining siyosiy, xarbiy-strategik va iqtisodiy manfaatlarini mustahkamlash bilan bir qatorda, o'lka iqtisodiyotida ijobiy o'zgarishlarning ro'y berishiga turtki berdi. Shuningdek, temir yo'llarning qurilishi o'lka xalqlarining ijtimoiy hayotiga ham muayyan darajada tasir ko'rsatdi. Temir yo'l o'tgan hududlarda yangi shaharlar va aholi punktlarining paydo bo'ldi. Farg'ona vodiysiga temir yo'llar qurilishi tufayli Oqtosh, Oxunboboyev, Quva, Xamza kabi shahar va shaharchalar, transport tugunlari vujudga keldi. Ilgari aholi yashagan hududlarda iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotning jonlanishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi shular jumlasidandir. Shuningdek Rossiya imperiyasining markaziy rayonlaridan ko'chib kelgan aholi soni oshib borgani tufayli temir yo'l o'tgan hududlarda aholining ijtimoiy tarkibi o'zgarishi temir yo'l qurilishining eng muhim natijalaridan bir hisoblanadi. 1929-1931-yillarda qurilgan uzunligi 1452 km bo'lgan Turkiston-Sibir temir yo'li O'zbekiston temir yo'li bilan ulandi. Natijasida Farg'ona transport tizimining rivojlanishida yangi bosqichga ko'tarildi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida temir yo'llarning qurilishi va ularni malakali ishchilar bilan ta'minlash zaruriyati hamda Rossiya imperiyasi hukumatining ko'chirish siyosati o'lkada ruslarning va Rossiya imperiyasining markaziy rayonlaridan ko'chib kelgan boshqa etnoslar aholisi sonining oshishiga sabab bo'lgan. Ko'chib kelgan aholi o'zjalik ishlab chiqarishida muhim ijobiy o'zgarishlarning vujudga kelishi, shu bilan bir qatorda, mahalliy xalqning xo'jaligida ham muayyan o'zgarishlarning sodir bo'lishiga sabab bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Кузикулов И.У. Россия империяси мустамлакачилик сиёсатининг Туркистондаги этномаданий жараёнларга таъсири (Фарғона водийси материаллари асосида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Термиз, 2022. – Б. 67.
2. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. “Т” харфи. – Тошкент: ЎзМЭ, 2005. – Б. 251.
3. Тоғаева А.З. Туркистонда темир йўллар қурилишининг ўлкадаги этномаданий жараёнларга таъсири (XIX аср охири – XX аср бошлари) / Этнос ва маданият: аънавийлик ва замонавийлик. “Академик Карим Шониёзов ўқишлари” туркумидаги этнологларнинг V Республика илмий конференцияси материаллари. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 102–103.
4. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёти ва ижтимоий соҳаси ривожланишида темир йўлларнинг роли // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – 2003. – №7. – Б. 9.
5. Эрқаев Э.М. Россия империясининг Фарғона вилоятида пахтачиликни ривожлантириш сиёсати ва унинг деҳқонлар турмушига салбий таъсири / “Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда”. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Андижон, 2015. – Б. 185.
6. Ахмеджанов Г.А. Российская империя в Центральной Азии (история и историография колониальной политики царизма в Туркестане). – Ташкент, 1995. – С. 94.
7. “Темирйўлчи” газетаси. 2002 йил 26 апрель. – №15 (5373).
8. Мусаев Н.У. Туркистонда капиталистик ишлаб чиқариш муносабатларининг пайдо бўлиши (XIX асрнинг охири – XX аср боши). – Тошкент, 1995. – Б. 56.
9. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т.12. – Тошкент: ЎзМЭ, 2005. – Б. 184.
10. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Туркистон чор мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарк, 2001. – Б. 66.



Gulra'no ORIFJONOVA,
Milliy rassomlik va dizayn instituti doktranti, (PhD)
E-mail: gulirano.orifjonova@mail.ru

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori, professor, t.f.d J.X.Ismailova taqrizi asosida

THE HISTORY OF THE APPLICATION OF INNOVATIVE SOLUTIONS IN THE MUSEUMS OF UZBEKISTAN INSTITUTIONS DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation

This article analyzes the history of the application of innovative solutions in the museums of Uzbekistan institutions during the years of independence. Interactive, innovative exhibitions of the institution's museums, created in the exposition, were studied. A distinctive feature of Museums of this category is manifested in the reorganization, moderation of the exposition and frequent meeting of the reexposure. Currently, museums on the history of Military Museums in Uzbekistan are distinguished by the fact that they are numerous and leading.

Keywords: institution, museum, industry-departmental museum, innovation, 5 D effect, complex method, hologram, smart technology.

ИСТОРИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ В МУЗЕЯХ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

В данной статье проанализирована история применения инновационных решений в музеях Узбекистана в годы независимости. Были изучены интерактивные инновационные выставки, созданные музеями учреждения в экспозиции. Особенность данной категории музеев проявляется в их реорганизации, модернизации экспозиции и частом посещении в реэкспозиции. В настоящее время в Узбекистане выделяются многочисленные и ведущие музеи по истории военных музеев.

Ключевые слова: учреждение, музей, отраслево-ведомственный музей, инновации, эффект 5 D, комплексный метод, голограмма, смарт-технологии.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON MUASSASA MUZEYLARIDA INNOVATSION YECHIMLARNING QO‘LLANILISH TARIXI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekiston muassasa muzeylarida innovatsion yechimlarning qo‘llanilish tarixi tahlil qilingan. Muassasa muzeylarining ekspozitsiyada yaratgan interaktiv, innovatsion ko‘rgazmalari o‘rganilgan. Mazkur toifadagi muzeylarning o‘ziga xos xususiyati qayta tashkil etilishi, ekspozitsiyasi moderinizatsiya qilinishi va reekspozitsiyaga tez-tez uchrashida namoyon bo‘ladi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda harbiy muzeylar tarixiga oid muzeylar ko‘p sonli va yetakchi ekanligi bilan alohida ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: muassasa, muzey, sohaviy-idoraviy muzey, innovatsiya, 5 D effekt, kompleks metod, gologramma, smart texnologiyalar.

Kirish. Muassasa tarixi muzeylari (tarix fanining mustaqil tarmoqlariga bag‘ishlangan) – sohaviy-idoraviy muzeylar, turli adabiyotlarda turli nom bilan atalib, biror bir soha tarixini yoritishga bag‘ishlangan muzeylar. Asosan vazirliklar, muassasa, tashkilotlar qoshida tashkil etilgani uchun ham ikkinchi nomi sohaviy-idoraviy yoki muassasa muzeylari deb nomlanadi. Aynan mana shu ixtisoslik muzeylari O‘zbekistonda katta tezlikda rivojlanayotgan muzeylar hisoblanadi. Bu yo‘nalishdagi muzeylar sirasiga Soliqlar tarixi muzeyi (2007), Qurolli Kuchlar muzeyi (2010), Ichki ishlar organlari tarixi muzeyi (2018), Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasida tashkil qilingan «Shonsharaf» muzeyi (2021), O‘zbekiston kasaba uyushmalari tarixi muzeyi (2021), O‘zbekiston Bosh Prokuraturasining «O‘zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyi» (2022), Jizzax viloyati Ichki ishlar organlari tarixi muzeyi (2022) va boshqalarni kiritish mumkin. Mazkur toifadagi muzeylarning o‘ziga xos xususiyati qayta tashkil etilishi, ekspozitsiyasi moderinizatsiya qilinishi va reekspozitsiyaga tez-tez uchrashida namoyon bo‘ladi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda harbiy muzeylar tarixiga oid muzeylar ko‘p sonli va yetakchi ekanligi bilan alohida ajralib turadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mustaqillikning dastlabki yillarida muzeylar faoliyati[1] va muzeyshunoslikka bag‘ishlangan ilmiy asarlarda[2] mavzuga doir nazariy O‘zbekistondagi tarix va o‘lkashunoslik muzeylari[3], muzey ishi tarixi[4], muzey fondlari[5], jahon muzeylarida O‘zbekistonga oid kolleksiyalarning shakllanishi [6] hamda muzey turizmi rivoji[7], virtual muzeylar yaratishning jahon tajribasi[8] va O‘zbekistonda ularning rivojlanish istiqbollari-ga bag‘ishlangan tadqiqotlarda qamrab olingan[9]. O‘zbekiston muzeylari faoliyati[10], xorij muzeylarida to‘p-langan kolleksiyalar[11] va an’anaviy qadriyatlariga e’tibor qaratilgan o‘quv qo‘llanma, darslik va monografiyalar ham mavjud[12].

Jahonning yetachi muzeylarida innovatsion dasturlar keng qo‘llaniluvchi metodlardan biri hisoblanadi. Muzey pedagogikasi va andragogikasiga oid dasturlar yaratishda, muzeyga tashrif buyuruvchi turli yoshda va qatlamga oid tashrifchilar bilan ishlashda, inklyuziv shaxslarni muzeyga jalb etishda, muzey marketingini rivojlantirishda innovatsion metodlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda muzeylarning innovate-sion rivojiga oid tadqiqotlarni olib borish muzeyshunoslikda

muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Hozirgi kunda bu borada ilmiy izlanishlar va adabiyotlarning tanqisligi yaqqol seziladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixiy-madaniy va qiyosiy tahlil, shuningdek, muzeyshunoslikning tavsiflash, tasniflash, taqqoslash, tizimlashtirish, kuzatuv usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Qurolli kuchlar muzeyi eng qadimgi davrdan to hozirgi kungacha bo'lgan harbiylar hayotini aks ettirishi hamda o'zida turli davrlarga oid ko'rgazmalarga egaligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, temuriylar davrini aks ettirgan ko'rgazmada kompleks metoddan foydalanib, «Amir ul-umaro (bosh qo'mondonning) safar chodiri» nomli ekspozitsiya yaratilgan. Bunda harbiy yurishlar davridagi hayot tarzi ko'rsatilgan. Mulyajlar vositasida davrga oid qo'riqchi jangchilar qiyofasi va liboslari qayta tiklangan. Bundan tashqari ikkinchi jahon urushi davriga bag'ishlangan ko'rgazmada ham ko'proq urush davridagi hayot tarzi kompleks metod yordamida ko'rsatib berilgan. Mustaqillik davri askari oshxonasini namoyish etuvchi ko'rgazma askarlar taomlari, ular foydalaniladigan idishlarni namoyish etgan [13]. Muzey muhiti tomoshabinni har bir davrga xos bo'lgan jangovar hayot tarziga olib bora oladi, tashrifchiga bu hissiyotni bera oladigan darajada yaratilgan.

Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasida tashkil etilgan «Shon-sharaf» muzeyi o'zining muvaffaqiyatli dizayni bilan ko'plab mutaxassislar e'tirofiga sazovor bo'lgan. Ayniqsa, har bir davrda turli davlatlarda ichki ishlar xodimlarining tipik qiyofasini gavdalandira olgan obrazli manikenlar tomoshabinlarni muzeyga yanada qiziqtiradi. To'ldiruvchi elementlardan boy foydalanilganligi, yetakchi

metodni illyustrativ metodga asoslangan fon to'ldirishi diqqatga sazovor. Noyob qurollar kolleksiyasining mavjudligi, GAI ga tegishli sariq rangdagi mashina kabi nodir eksponatlar muzey salohiyatini yanada oshirgan. Uzoq yillar davomida tizimga sidqidildan xizmat qilgan xodimlarning obrazli mulyajlarini yaratilganligi, ular bilan bog'liq ibratli voqealarni ekskursiya davomida tashrifchilarga so'zlab berilishi muassasa muzeylarida ham muzey ishi katta tajriba asosida yuqori saviyada yo'lga qo'yilayotganini ko'rsatadi.

Jizzax viloyati Ichki ishlar organlari tarixi muzeyi to'rt bo'limdan iborat. Muzey dizaynini yaratishda qator kreativ yechimlar qo'llanilgan. Ekspozitsiya asosini illyustrativ, kompleks, tematik, ansambl metodlari tashkil etadi. Har bir metod imkoniyatidan ma'lum bir mavzuni yoritishda, muzey eksponatlardan kelib chiqqan holda o'z o'rnida foydalanilgan. Muzey kolleksiyasida mavjud miltiqlar, qo'lbola pistoletlar, kalibrlar, mauzer kabi o'qotar qurollar, ofitserlarning qadimiy qilichlari tematik metod yordamida dizaynerlik loyihasidan foydalanib tomoshabinlarga taqdim etilgan. Mulyajlar vositasida o'rta asrlarga xos mirshablar ko'rinishi yaratilgan. Kompleks metod yordamida ichki ishlar tizimida foydalanilgan harbiy liboslarning xronologik o'zgarishi ko'rsatib berilgan. Fonda esa viloyat ichki ishlar boshqarmasining binosining tadrijiy o'zgarishi namoyish etilgan. General-larning 1970-yillardagi va hozirgi kundagi formasi ham taqqoslash uchun qo'yilgan. 1970-yillardagi generallar libosi Jizzax viloyati Ichki ishlar tizimining birinchi rahbari general mayor Yorulla Norbekovga tegishi ekanligi bilan muzeydagi noyob eksponat hisoblanadi.



1-2-rasm. Jizzax viloyati ichki ishlar boshqarmasi muzeyi. Foto muallifi: G.Orifjonova. 2022-yil.

Ansambl metodi yordamida 1970-yillarda Jizzax viloyati ichki ishlar boshqarmasi tashkil topgan vaqtidagi navbatchi xonasi o'z aslidek yaratilgan. Navbatchi mulyaji tomoshabinlarda haqiqiydek taassurot uyg'otadi. Bundan tashqari Ichki ishlar tizimidagi sohaviy xizmatlarga bag'ishlangan o't o'chiruvchilar faoliyati va ularga tegishli jihozlar illyustrativ, mulyajlar vositasida tomoshabinga namoyish etilgan.

Yo'l harakati xavfsizligi xodimlarining 1970-yillarga oid tipik ko'rinishi ansambl metodi yordamida ko'rsatilgan. Orqa fonda Jizzaxdagi mashhur Ilon o'tdi darasi orqali o'tadigan yo'l va unda yo'l harakatini tartibga solayotgan xizmatchining tarixiy fotosi tushirilgan. GAI ga tegishli sariq mototsikl va yo'l harakatini tartibga soluvchi xizmatchi obrazi barcha detallari bilan haqqoniy ko'rinishda yaratilgan. Yo'lchiroqlar maketi bilan ko'rgazma boyitilgan.

Bugungi kunda muassasa muzeylari hatto eng ko'p innovatsion g'oyalarni qo'llash bo'yicha musobaqalashish jarayonini boshlab yuborishgan. Eng innovatsion loyihalar, 5 D effektlar, gologrammalar yordamida muzeyshunoslikdagi

oxirgi ilg'or, smart texnologiyalar asosida yaratilgan ekspozitsiyaga ega bo'lgan muassasa muzeylardan biri Bosh prokuraturaning O'zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyi hisoblanadi.

Muzey jami 7 ta bo'limdan iborat bo'lib eng qadimgi davrdan to hozirgi kundagi O'zbekiston prokuraturasi faoliyatini qamrab olgan. Muzey fondida 5 mingga yaqin hujjatlar 7 mingdan ortiq foto va videomateriallar, 2 mingga yaqin eksponatlar jamlangan. Muzey 700 kvadrat metr maydonda bunyod etilgan [13].

Muzey ilmiy konsepsiyasi va tematik tuzilishi ham tarixni hamda innovatsion loyihalarni bir nuqtada mujassamlashtira olgan. Ekspozitsiyani boshlanish qismida tashrifchini prokuratura xodimasi ko'rinishdagi gologramma robot kutib oladi muzeyni nima maqsadda tashkil etilgani, uning qanday va nechta bo'limdan iboratligi haqida ma'lumot beradi.

Muzeydagi yana bir innovatsion g'oya asosida yaratilgan ekspozitsiya tarixda qozilarning adolatli hukm chiqarishi naqadar muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatib beruvchi ibratli hikoya bilan bog'liq.



3-4-5-rasm. O'zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyi. Foto muallifi: G.Orifjonova. 2022-yil.

Bir kuni Buxoro amirligida tungi qorovul bilan savdogar o'rtasida kelishmovchilik tufayli savdogar uyida yong'in sodir bo'ladi. Donishmand Qozikalon Muhammad Isoxon ishini astoydil tekshiradi, chunki uning qaroriga qarshi chiqish mumkin emas. Hatto eng kichik xatolik ham tarozining pallasini noto'g'ri tomonga og'dirishi mumkin. Hakamning ko'pyillik tajribasi, ustozlarining bilimini chuqur egallashi haqiqat mezoni hisoblanadi. Qozikalonning adolatli va dindor bo'lganligi mahkamada adolatli qaror chiqarish imkonini beradi.

Mazkur voqea muzeyda innovatsion texnologiyalar yordamida gologrammalarda ifodlangan holda ekspozitsiyalashtirilgan. Tarixiy muhit va qozikalon qiyofasi ansambl va shartli sahna ekspozitsiya yaratish metodlari vositasida bajarilgan bo'lib, orqa fonda yong'in tafsilotlari 3D effektlar orqali namoyish etilgan. Musiqadan foydalanilgani tomoshabinni davr muhitiga tushirishga yordam beradi.

Muzey «Tergovchi xonasi» nomli ko'rgazma yaratilgan bo'lib, mazkur ansambl metodi orqali yaratilgan ekspozitsiyada XX asrning 70-80 yillariga oid bo'lgan tergovchi xonasi o'sha davrga xos jihozlar bilan innovatsion g'oyalar asosida ko'rsatib berilgan. 5 D effektlar yordamida hosil qilingan tergovchi qiyofasi kriminalistika oid tekshiruvlarni olib borilayotgan prokuratura xodimi faoliyatini yoritadi, obraz real tipaji asosida yaratilgan.

«Xotira – muqaddas» (yuksak matonat va jasorat namunasi) bo'limi xizmat vazifasini bajarish chog'ida mardlarcha halok bo'lgan prokuratura organlari xodimlarining yorqin xotirasiga bag'ishlanadi. Qora marmarga yulduzcha shakli qalqon ko'rinishida tushirilgan hamda prokurorlar tasviri va ism-familiyasi avtomatik tarzda ko'rsatib turiladi.

Keyingi bo'lim O'zbekistondagi sud-huquq islohotlariga bag'ishlanib, Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan huquqiy o'zgarishlarni yoritadi. Prokuratura organlarining xalqaro hamkorligi deb nomlangan navbatdagi bo'limda xalqaro hamkorlik natijalari, esdalik sovg'alar, o'zaro malaka almashish jarayonlari yoritilgan.

Yangi O'zbekiston prokuraturasi faoliyati deb nomlangan ko'rgazmada bugungi kunda tizimda faoliyat olib borayotgan rahbarlar, viloyat prokuraturasi jamoalari, ularning amalga oshirayotgan ishlari, xalq prokuraturasi faoliyati namoyish etilgan. Muzeyda bundan tashqari virtual muzey dasturi ham ishlaydi. Tizimda faoliyat olib borgan ikkinchi jahon urushi, afg'on urushi qatnashchilari, mukofotlangan xodimlar, sport, ilm-fanda yutuqlarga erishgan yoshlar faoliyati monitorlar orqali ko'rsatib beriladi. Mazkur muzeyni muassasa muzeyi bo'lishiga qaramasdan, eng so'nggi texnologik effektlar qo'llanilgan zamonaviy muzeylar sirasiga kiritish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish joizki, O'zbekiston muassasa muzeylarida innovatsion rivoj dastlab g'oyaviy ko'rinishda ya'ni muzeylar konsepsiyasida aks etgan. Tarixiy ixtisoslik muzeylari barcha tipdagi muzeylar orasida yetakchilik qildi, shu jumladan muassasa tarixi muzeylarida ham. Bugungi kunda muassasa muzeylari ham innovatsion rivojlanish yo'lidan bormoqda. Bu noan'anaviy yondoshuv, ekspozitsiyadagi kreativ yechim, smart texnologiyalarni muzeylarda qo'llash, innovatsion yondoshuvlardan foydalanishga bo'lgan talab va ekspozitsiyani doimiy rekspozitsiyaga uchrashi orqali namoyon bo'lmoqda.

АДАБИЁТЛАР

1. Бекмуродов М., Рашидов М. Музейшунослик. – Тошкент, 2006. – 102 б.
2. Фузаилова Г., Хасанова М. Музееведение. – Ташкент, 2008. – 192 с.
3. Исмаилова Ж.Х., Левтеева Л. Г. Музеи, галереи, арт центры Ташкента. – Т.: Fan va texnologiya, 2017. – 234 б.
4. Kuryazova D. T. Muzey ishi tarixi va nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 2007. -160 b.
5. Альмеев Р.В. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития (1991 – 2000 г.г.): автореф. на соискание уч. степ. доктора ист. наук. – Ташкент, 2012. – 50 с.
6. Курбонова Д.А. Жаҳоннинг йирик музейларида Ўзбекистонга оид коллекцияларнинг шаклланиши ва уларни комплекшлаш тамойиллари. Тарих фан. док. дисс. – Тошкент, 2020. – 230 б.
7. Мухамедова М.С. Ўзбекистоннинг тарихий шаҳарларидаги музейлаштирилган объектларда туризмнинг шаклланиши ва ривожланиш истиқболлари (XX асрнинг II ярми – XXI аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 49 б.
8. Миралиева Ш.А. Виртуал музейлар яратишнинг жаҳон тажрибаси ва Ўзбекистонда уларнинг ривожланиш истиқболлари. Тарих фан. фалсафа док. автр.– Тошкент, 2019. – 54 б.
9. Исмаилова Ж.Х., Мухамедова М. С. Замонавий жаҳон музейшунослиги. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2013. – 310 б.
10. Исмаилова Ж. Х., Нишанова К. С., Мухамедова М. С. Музей ва жамият. Олий таълим муассасалари учун дарслик. – Тошкент, 2015. – 174 б.
11. Мухамедова М.С. Музейшунослик соҳасини ривожлантиришда миллий ва халқаро ташкилотлар фаолиятининг ўрни (XX - XXI асрлар). – Тошкент, 2017. – 297 б.
12. Курбонова Д. А. Дунё музейларидаги меросимиз. – Тошкент, 2017. – 166 б.
13. Орифжонова Г.Р. XIX-XX аср бошларига оид Ўзбекистон этнографик коллекцияларининг сақлаш, тадқиқ этиш ва намойиш этиш масалалари (жаҳон музейлари коллекциялари мисолида). Монография. – Т.: «Lesson Press» нашриёти, 2022. – Б. 56-57.
14. <https://daryo.uz/k/2022/03/12/ozbekiston-prokuraturasi-tarixi-muzeyiga-fotosayohat/>



Oybek RASHIDOV,
Buxoro davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi professori, t.f.d (DSc)

O‘zMU professori A.Ermetov taqrizi asosida

TURKISTONDA MILLIY ZIYOLILARNING BOLSHEVIKLARGA QARSHI MAFKURAVIY KURASHI

Annotatsiya

Mazkur maqola O‘zbekiston hududida milliy ziyolilar va bolsheviklar o‘rtasidagi mafkuraviy kurashning nazariy asoslariga bag‘ishlanadi. Bunda sobiq ittifoq davrida o‘zbek ziyolilar ilgari surgan qarashlar burjua, mayda burjua, liberal burjua, idealistik, klerikal (diniy) kabi mehnatkash xalqqa yot va dushman g‘oyalar sifatida qoralanib kelinganligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Inqilobiy kurash, sinfiy kurash, proletariyat va burjuaziya o‘rtasidagi kurash, partiyaviy kurash, mafkuraviy kurash, dastur, partiya, bolshevik, milliy ziyolilar, jadidchilik, millatchilik, shovinizm.

ИДЕЙНАЯ БОРЬБА НАЦИОНАЛЬНОЙ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ ПРОТИВ БОЛЬШЕВИКОВ В ТУРКЕСТАНЕ

Аннотация

Данная статья посвящена теоретическим основам идеологической борьбы между национальной интеллигенцией и большевиками на территории Узбекистана. Анализируются взгляды узбекской интеллигенции в бывшем союзе как буржуазные, мелко буржуазные, либерально-буржуазные, идеалистические, клерикальные (религиозные) и чуждые для трудящимся.

Ключевые слова: Революционная борьба, классовая борьба, борьба пролетариата и буржуазии, партийная борьба, идеологическая борьба, программа, партия, большевик, национальная интеллигенция, джадидизм, национализм, шовинизм.

IDEOLOGICAL STRUGGLE OF THE NATIONAL INTELLIGENTSIA AGAINST THE BOLSHEVIKS IN TURKESTAN

Abstract

This article is devoted to the theoretical foundations of the ideological struggle between the national intelligentsia and the Bolsheviks on the territory of Uzbekistan. The views of the Uzbek intelligentsia in the former Soviet Union are analyzed as bourgeois, petty bourgeois, liberal-bourgeois, idealistic, clerical (religious) and alien to the working people.

Key words: Revolutionary struggle, class struggle, struggle between the proletariat and the bourgeoisie, party struggle, ideological struggle, program, party, Bolshevik, national intelligentsia, Jadidism, nationalism, chauvinism.

Kirish. Turkiston ziyolilari, ma’rifatparvarlari kommunistik partiyaning mafkurasini yaxshi anglar edilar. Taraqqiyparvarlar mumkin qadar bolsheviklarning buzg‘unchi mafkurasini milliy manfaatlarga to‘g‘ri kelmasligini tushuntirishga harakat qilganlar. Turkiston jadidlari otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy matbuotda o‘zining qarashlarini bayon etib borgan. U Kommunistik partiya (Ishtirokiyuni firqasi) ni ikkiga bo‘ladi: sotsial-demokrat (“ishtirokiyuni o‘miyun”), sotsial-revolutsioner (“ishtirokiyuni inqilobiyuni”). Har ikkisinin o‘z oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi mavjud “barcha qonun, mulkiyat qoidalarini butun buzib, mol va yerlarni hamma xaloyiq o‘rtasida mushtarak qilmoq”, “boylik va kambag‘allikni yo‘q qilib, dunyo moli rohatidan hammani barobar foydalanitirmoq...” Mazkur g‘oya amalga oshishi mumkin emas, chunki u g‘ayriilmidir, g‘ayriaxloqiydir, binobarin, g‘ayriinsoniydir. Behbudiy kommunistlarning harakatlari, dasturlari, maqsadlarini “xayoliy” deb baholaydi va “bu toifaga qo‘shilmoq biz musulmonlar uchun nihoyatda zararlidir”, “programmalarini..., oila bobidagi fikrlari ham aslo-aslo to‘g‘ri kelmaydir...” [1]deb ta’kidlagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bolsheviklar mafkurasini hali ular hokimiyatni to‘liq egallab ulurmagan bir paytda jadid ma’rifatparvarlariga ayon bo‘lgan edi. Abdurauf Fitrat Muso Saidjonovga jadidchilik g‘oyalarning asoschisi Ismoilbek Gaspirinskiy qalamiga mansub “2000 – sana” fantastik romanini o‘qish uchun beradi. Romanda 2000 yilga kelib jahonning barcha mamlakatlarida demokratik jamiyatlar tinch yo‘l bilan qaror topishi, adolat va tenglik yuzaga kelishi bashorat qilingan edi. Rossiya, Germaniya, Eron, Turkiya va boshqa mamlakatlarda sotsialistlar sinfiy kurash g‘oyalari bilan millionlab kishilarning ongini zaharlayotgan bir paytda

Gaspirinskiy maqbul yo‘lni taklif qilmoqda edi: “Sotsializm mehnatda sinalgan qardoshlikdan boshqa, na dinni, na irqni, na millatni, na tilni tan oladi. Ularning shiori va maqsadi “Butun dunyo proletarlari birlashingiz”. “Sotsialistlar” va “sotsial-demokratlar” ning “Adolat”, “Musoviylik” haqidagi shiorlari tashqaridan jimjimador, kishini mahliyo qiluvchi bo‘lib ko‘rinadi. Aslida bu nazariya uni tug‘dirgan sabablarga muvofiq ish tutadi, inqilobiy kurashga, qon to‘kishga chaqiradi... Lekin buning uchun jahon tartibini buzmoqqa hojat yo‘q, aks holda bundan ham katta murakkabliklarga duch kelinadi. Har bir kishining ish va osoyishtaligini ta’minlamoq zarur. Ammo, bu mutlaqo birinikini musodara etib, ikkinchisiga berish, degani emas... turli kishilarning aqli, kuchi, qobiliyati turlicha, shuning uchun ham har kim o‘z imkoniyatiga qarab yig‘inadi... Endi shuning bari kishilarga teng bo‘linadi, deyilar. Bu qanday tenglik bo‘ladi? Bunda adolat bormi? Mamlakat va jamiyatni “kazarma”ga aylantirib, har bir kishini umumiy yemakxonaga taklif etarmishlar...” [2].

Turkiston milliy ziyolilarida kelajakda birinchisi radikal milliy, ikkinchisi sotsialistik bo‘lgan ikki partiyalik tizimda idora etish g‘oyasi bo‘lgan. A.Z.Validiy radikal milliy partiya sifatida “Erk” va jadidlarning “Taraqqiyparvarlar” kabi partiyalarini keltirib o‘tgan. 1921 yili Buxorodagi muzokaralarda “Erk” partiyasining 27 muddadan iborat dasturi to‘qqiz moddaga qisqartirilgan hamda “Taraqqiyparvarlar” partiyasi 19 bandedan iborat dasturi qabul qilingan. Ushbu “Taraqqiyparvarlar” partiyasi dasturining birinchi bandida shunday so‘zlar keltirilgan: Milliy madaniyatga ega bo‘lib, mustaqil millat sifatida yashamoq hayotning tub asosi bo‘lishi kerak. Bu barcha millatlarning ezgu orzusidir. Maqsadimiz Turkistonda mustaqil va milliy hukumat

tuzishdir. Millat til, din, adabiyot, urf-odat, an'analar yaxlitligiga tayanadi [3].

Turkistonda sovet hokimiyatining zo'rvonlik bilan o'rnatishi milliy kadrlar, ziyolilar va keng xalq ommasining umumiy noroziligiga sabab bo'lgan. Milliy ziyolilar bolsheviklarning yaklahokimlik siyosatini, davlat boshqaruvida mahalliy kadrlar xohish-irodasining e'tiborga olinmasligini, bu esa mustamlakachilikdan boshqa narsa emasligini ochiq aytadilar. Ular mustamlakachilikka qarshi olib borilgan qurolli kurash yoki mafkuraviy kurashning mavjud bo'lishi tabiiy jarayon ekanligini bildirgandilar: "Mustamlaka va metropoliya o'rtasidagi asosiy ziddiyat mahalliy siyosat chora-tadbirlari tufayli qisqarmaydi. Bo'ysunadigan kishining individual va milliy erkinlikka intilishining psixologik asosi, uncha mustahkam va foydasi kam bo'lsa ham, insonning ajralmas xususiyatidir. Eng yaxshi boshqaruvga qaramasdan bo'ysunadigan kishi va hukmronlik qiluvchi kishi o'tasidagi qarama-qarshilik muqarrardir"[4].

Bolsheviklar mafkurasiga qarshi kurash nafaqat O'zbekiston va boshqa sovet respublikalarida, shuningdek, inqilob markazi hisoblangan Rossiyaning o'zida ham mavjud edi. Ayniqsa, muxolif marralar bolshevizm mafkurasining iqtisodiy tomonlariga keskin qarshi edilar. Fuqarolar qo'lidagi mol-mulk, yer va boyliklar zo'rvonlik bilan, yanada aniqroq aytganda proletariatcha hujum natijasida tortib olingan edi. 1925 yil partiya Markaziy Qo'mitasi o'sha vaqtda Buxarini maydonga aytgan va "Komsomolskaya pravda" yoqlab chiqqan "Boy bo'lingiz!" shiorini I.V.Stalin tashabbusi bilan qoralagan edi. Stalinning aytishicha, bu narsa "aslida kapitalizmni tiklashga chaqirish" edi [5].

Bolsheviklar o'zlarining mafkuralarini matbuot orqali o'tkazish uchun kurashganlar. Ular milliy ziyolilarning kundalik gazeta, jurnal, hatto chiqarilgan kitoblarni tanqid qilganlar va har xil usul vositalar bilan kuchli bosim o'tkazganlar. Kommunistik partiyaning yig'ilishlarida mafkura masalasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar bir necha bor muhokama qilingan. Ushbu muhokamalarda eski ziyolilarga qarshi qanday usul va vositalar bilan g'oyaviy kurash olib borish lozimligini qayd etganlar. Shu o'rinda mafkura masalasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar tahlil qilingan [6].

Bolsheviklar tomonidan sovet mafkurasiga xizmat qilishni istamagan milliy ziyolilar faoliyati doimo nazorat qilingan. Milliy ziyolilardan Munavvar Qorining faoliyati bir necha marotaba muhokama qilinib, shunday keltirilgan: "Keyingi vaqtlarda Munavvar Qorining ikkinchi bosqich maktablari uchun yozilgan kitobining ikkinchi bo'limida firqamizning hozirgi siyosatiga to'g'ri kelmaydigan narsalar va mayda bularning miyasini zaharlaydigan jumlar yozilgan edi. Bundan bizning xabarimiz bo'lmagan. Chunki bu ish hukumatimizning boshqa ishlar bilan ovora bo'lib, bularning shu harakatlariga yaxshi ahamiyat bermaganligidan bo'lsa, ikkinchidan, ko'proq o'zimizning maorif xodimlari davlat nashriyotida o'tirgan kishilarning rahbarlari bu ishga ahamiyat bermaganligi, kitobning rasmiy tomonini ko'rib chiqib, mafkuraviy jihatiga ahamiyat bermaganligi bo'lib chiqadi. Ular o'zlarining buzuq mafkuralari bilan bolalarni tarbiyalamoqdalar. Hozirda ham bunday ishlarni to'xtatganlari yo'q" [7].

Ziyolilarning partiya oldidagi xizmatlari unumli bo'lishi mamlakatda

hokimlik qiluvchi ishchilar sinfi mafkurasiga qanchalik yaqin turishiga bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Bolsheviklar sovet ziyolisining mafkura maydonida yo'l qo'yayotgan kamchiliklarining quyidagi 3 ta asosiy xususiyatini keltiradilar:

"Birinchisi – yangi sovet ziyolisining marksizm bilan yaxshi tanish bo'lmaganligi;

ikkinchisi – bular safida millatchilik ruhi borligi;

uchinchisi – ziyolilarimiz ichida siyosatdan chetda turishning mahkam ildiz otganligi" [8].

Sovet davlati milliy masalaga proletarcha ruhdan yondashib, jamiyatni ezuvchi va eziluvchiga, boylar va kambag'allarga ajratdi, milliy manfaatlar va milliy munosabatlarning murakkab va xilma-xil ekanligini unutilib, uning muttasil rivojlanib hamda chuqurlashib borishini e'tiborga olmadi. Natijada tor milliy manfaatlar atrofida o'ralashib qolish holatlari yuzaga keldi. Sovet davlatining "sotsializm qurishning sharti" bo'lgan milliy avtonomlashtirish siyosatiga qarshi chiqqanlar "xalq dushmanlari" deb ataldi. Shu tariqa "proletar internatsionalizmi" g'oyasi yuzaga keldi. Sovet davlatining nazariy asoslari qurilayotgan vaqtda proletariat diktaturasining asoschisi V.I.Lenin chizib bergan yo'ldan borildi. V.I.Lenin millatga tegishli har qanday jiddiy masalani milliylik jihatdan emas, balki sinfiylik jihatdan hal qilish kerakligini uqtirib, sotsialistik tuzumga xos bo'lgan yakka partiyaning milliy imtiyozlarga qarshi siyosatini yoqlab chiqqan edi. Ushbu g'oyalar majmuida qurilajak "sog'lom kommunistik jamiyat" kishilari nafaqat o'z fikri, tuyg'usi bilan balki kiyinish madaniyati bilan ham ajralib turishi lozim edi [9].

Rahbarlarning mafkura sohasidagi faoliyati susayib borayotganligi tufayli hamma yerda g'oyaviy, tarbiyaviy ishlar yuzaki, xo'jako'rsinga bo'lib o'tayotganligi partiya yig'ilishlarida qattiq tanqid qilingan. Proletariat mafkurasiga uchun kurash masalasiga vaqtinchalik, o'tkinchi narsa deb qarash maqsadga muvofiq emasligi, mafkura jabhasidagi ishlar tartibli va doimiy ravishda olib borilishiga urg'u berilgan. Shu bilan birgalikda mafkuraviy o'rinlarda ishlaydigan ziyoli kuchlar orasida ishlashni kuchaytirish orqali millatchilik va shovinizm ko'rinishlariga zarba berish hamda ularni baynalmilachilik va marksizm ruhida tarbiyalash masalalariga e'tibor qaratilgan" [10].

O'zbekistonda ba'zi ziyolilar milliy burjuaziyaga asoslangan davlat tuzish uchun kurashayotganligi, bu kurash milliy nizolarning kuchayishiga sabab bo'layotganligi masalalari ham partiya yig'ilishlarida muhokama qilingan. Bu kurash avvalo umumiy milliy g'oyani sinfiy manfaatlariga qarshi qo'yishda, yo'qsullar hokimiyatini inkor qilishda va boshqa shunday harakatlardan namoyon bo'layotganligi qayd etiladi. Shuning bilan birga bu ziyolilarning ichida burjuaziyaning manfaatiga xizmat qiladigan ayrim guruhlar keltirilgan:

1) feodal munosabatlardan qolganlarning manfaatlarini ko'z oldida tutadigan va ularni tiklashga harakat qiladigan qora guruh xo'jayinlari va ziyolilar;

2) savdo burjuaziyasining manfaatini ko'zlab, kommunistik partiyaning shior va g'oyalaridan o'zlarining istaklari yo'lida foydalanishga harakat qiladigan "taraqqiyparvar"lar [11].

Bolsheviklar yuqorida ta'kidlangan ziyolilarning ushbu guruhlarini xafli deb hisoblaydilar. Ularning kuchli iqtisodiy negizga ega bo'lganligi, ya'ni boy va ruhoniylardan madad olishlari keltiriladi. Ikkinchi tomondan, ushbu ziyolilar sovet apparatlarida joylashib olganligi yashirin bir guruh bo'lib shakllanayotganligidan xavotir bildirishadi. Shu sababli bu guruhga qarshi partiyaning qat'iy suratda kurash olib borishi ta'kidlanadi. Darhaqiqat, kommunistik partiya va sovet hukumatining milliy masalada yuritgan noto'g'ri siyosati oqibatida ziyolilarning taraqqiyparvar qismi ichida ko'plab yashirin guruhlar, tashkilotlar va jamiyatlar paydo bo'lishiga olib keldi. Ziyolilarning yashirin faoliyatlariga yo'l bermaslik chorasini sifatida bolsheviklar ularni partiya va sovet hukumatiga yaqinlashtirish harakatini boshlaganlar. Buning uchun ziyolilardan o'zlarining ilgari yo'lbo'shchilari ta'siri ostidan chiqib, partiya rahbarligi ostida sovet hukumati bilan yaqindan turib birga ishlashlari talab qilindi.

Ta'lim tizimida, matbuotda, adabiyotda, o'zbek tili va arab imlosi masalasida bolsheviklar bilan milliy ziyolilar o'rtasida g'oyalar qarama-qarshiligi mavjud bo'ldi. Milliy ziyolilardan Murod Shams, Fitrat, Otajon Hoshim, Qayum Ramazon va G'ozim Olimlarning "o'ziga xoslik nazariyalari,

singarmonizm – temir qonun” mafkurası bolsheviklar tomonidan aksilinqilobiy g’oyalarnı tashib yurgan va ayniqsa Marks, Engels, Lenin va Stalin nazariyalariga qarshi qaratilgan harakat deb ataldi [12].

Bolsheviklar yangi sovet maktablarini tashkil etishga kirishib, ilgari ta’lim tizimida (madrasa ta’limi, jadid va rus-tuzem maktablarida) faoliyat ko’rsatgan o’qituvchilarning aksariyatidan foydalanib bo’lmaydi, deb topdilar. Inqilobdan avvalgi eski maktab va ayniqsa, madrasa da ta’lim-tarbiya bilan mashg’ul bo’lgan o’qituvchilarning yetarli bilimlarga ega emasligi, diniy aqidalar va burjua millatchiligi ta’siriga berilganligi, o’zlari esa sovet hokimiyatiga qarshi kishilar bo’lganligi vaj qilib ko’rsatildi. Yangi sovet maktabining o’qitish metodlari va berilgan ta’limning mazmuni eski maktablarga butunlay to’g’ri kelmasligi ta’kidlangan. Shu nuqtai nazardan bolsheviklar mehnatkash xalq manfaatlariga va sovet hokimiyati g’oyalariga sodiq yangi o’qituvchi kadrlarnı tayyorlashga qaror qildi.

Mafkura yakkahokimligi sobiq ittifoqchi respublikalarda, jumladan, O’zbekistonda xalqlarnı tobelikda saqlashni ta’minlashga, o’z tarixini unutib yuborishga, ona tilidan uzoqlashishga, milliy madaniyatning bir tomonlama rivojlanishiga xizmat qildi. Shunday sharoitda xalqimizning ma’naviyati va har qanday fikr-o’ylari, intilishi ko’pincha burjua millatchiligi g’oyalari, aksilinqilobiy harakatlar tariqasida baholandi. O’z vatandoshlarini ozodlikka, milliy taraqqiyotga chorlagan jadidlar harakatining rahbarlari – Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho’lpon, Usmon Nosir kabi o’nlab-yuzlab farzandlari, Fayzulla Xo’jayev, Akmal Ikromov, Turar Risqulovdek ko’plab atoqli davlat va jamoat arboblari mafkura yakkahokimligiga asoslangan istibdodning qurboni bo’ldilar [13].

O’zbek muhojir tarixchisi Boymirza Hayit bolsheviklarning mustamlakachilik siyosati haqida shunday yozgan edi: “Turkistondagi sovet mustamlakachiligi – sotsializm, kommunizm, internatsionalizm, milliy mustaqillik va boshqa shunga o’xshash turli niqoblar bilan o’zini saqlab kelmoqda. Sovet kolonializmini yaxshi tushunmoq uchun manbalarga diqqat qilaylik. Turkistonliklarning tarixi, madaniyati, urf-odatı, dini, tili va boshqa milliy xususiyatlari ruslarnikidan tamoman ayridir va butunlay boshqa mohiyatga ega. 1917 yilgacha Turkistonda sotsializm, kommunizm, ishchi harakati degan narsalar bo’lmagan, bu gaplar sho’ro tuzumi va Turkistonga yopirilib kelgan rus unsurlari tomonidan singdirilgan tushunchalardir” [14].

Amerikalik va yevropalik tadqiqotchilar barcha kommunistik mamlakatlarda proletariyat (ishchilar sinfi) mafkurası hukmron bo’lgan davrda chuqur iqtisodiy inqiroz va ilm-fanning barbod bo’lganligini ta’kidlab, quyidagi izohlarnı keltiradilar:

birinchidan, bolsheviklar zo’ravonlikka asoslangan, inqilobiy-terror yo’li bilan hokimiyatni egallashi oqibatida aholini “o’ziniki” va “begonalar”ga ajratgan holda, mamlaktnı fuqarolar

urushi va vayronalik domiga tashladilar. Shu yo’l bilan bolsheviklar hukumati noinsoniy tamoyillarga tayandi;

ikkinchidan, davlat boshqaruvi tizimi – proletariyat diktaturasi, qizil terror va zulmga asoslangan edi. Qotillik, zo’ravonlik, ota-onalardan judo bo’lgan minglab go’daklar – bularning barini bir izoh bilan “oqlash” mumkin – kommunizmcha ateistik jamiyatni qurishda qon-qarindoshlik, mehr-muhabbat tuyg’ularining unutilishi kerak bo’lgan, hech qanday do’st bo’lmasin – faqat partiya g’oyasi atrofida birlashgan hamfikrlar bo’lishi kerak bo’ldi. Diktatura hokimiyatning bir hovuch kishilar qo’lida to’planishiga olib keldi. Shuning uchun bolsheviklar fikriga zid fikrlar egasi, kim bo’lishidan qat’i nazar, xalq dushmani deb e’lon qilindi;

uchinchidan, jahon inqilobi martabasi. Ushbu g’oyani deb o’z ta’sir doiralarnı kengaytirish maqsadida kommunistik hukumat urushlar, inqiloblar va terroristik ishlarnı amalga oshirdi. Bu millionlab odamlarning yostig’ini quritdi. Kommunistik tuzumni dastaklash uchun har yili millionlab dollarlar sarf qilindi; to’rtinchidan, “bir xillik” prinsipi. Bu – inson qanday mehnat qilishidan qat’i nazar hamma uchun bir xil o’rnatilib qo’yilgan oylik maoshlarda o’z aksini topgan. Bu esa insonning yangilik yaratishga bo’lgan ishtiyoqini bug’di. Barchada “hamma qatori bo’lish” g’oyasi rasm bo’ldi. Shunday qilib, bolsheviklar odamlarnı rejali asosda itoatkor podaga aylantirishdi [15].

Xulosa va takliflar. Bolsheviklar Turkiston mintaqasidagi ziyolilarnı o’z tomoniga tortish va sovet mafkurasiga xizmat qilishini istadilar. Shu naqtai nazardan milliy ziyolilar “eski ziyoli”, “yot ziyoli” yoki “ziyonli” deb atalgan bo’lsa, proletariyat mafkurasiga xizmat qilish istagi bo’lganlar “yangi ziyoli”, “qizil ziyoli” deb yuritilgan. Bolsheviklar tomonidan milliy ziyolilar proletariyat inqilobidan alamzada bo’lgan, sovet hukumatiga dushman ko’zi bilan qarovchilar hamda sovet hukumatining yiqilishini istovchilar deb ataldi. Bolsheviklar eski ziyolilar sifatida jadidlarnı nazarda tutdilar. Yangi ziyolilarga esa proletar mafkuraga xizmat qiladigan va uning g’oyalaridan og’ishmasdan, o’zining shu yo’ldagi sadoqatini namoyon qilgan hamda eski ziyolilarnı tanqid qilganlar kiritildi.

Bolsheviklar milliy ziyolilarning istiqloq mafkurasiga qarshi “inqilobiy kurash”, “sinfy kurash”, “proletariyat va burjuaziya o’rtasidagi kurash”, “partiyaviy kurash” kabi g’oyalarnı o’rtaga tashladilar. Sovet milliy siyosati marksizmning nazariy va mafkuraviy asosiga tayandi. O’zlarini baynalmilalchi deb hisoblagan bolsheviklar kurashining ma’nosi jahon inqilobi, sinf va milliy farqlarnı bilmaydigan kommunistik jamiyat qurish bo’ldi. Turkiston ziyolilari, ma’rifatparvarlari kommunistik partiyaning mafkurasini yaxshi anglar edilar. Taraqqiyparvarlar mumkin qadar bolsheviklar buzg’unchi mafkurasining milliy manfaatga to’g’ri kelmasligini tushuntirishga harakat qilganlar. Natijada milliy ziyolilar, jadidlar bolsheviklar tomonidan panisломizm, panturkizm, ayblanganlar.

ADABIYOTLAR

1. Qosimov B. Milliy uyg’onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2002. –B.122–123.
2. Naimov N. Ma’rifatga baxshida umr: tarixiy qissa. – Buxoro: “Durdona”, 2018. –B.62–63.
3. Ahmad Zaki Validiy To’g’on. Xotiralar: Turkistonda mustaqillik va ozodlik uchun kurashlar tarixi. Tarjimon, ilmiy tahrir muallifi va nashrga tayyorlovchi M.Abdurahmonov. – Toshkent: “Istiqloq nuri”, 2014. – B.340–341.
4. O’z MA, 26-fond, 1-ro’yxat, 66-yig’ma jild, 9–10-vaqalar.
5. O’ng murtadlar – kapitalizmni tiklash tarafdori // “Qizil O’zbekiston”. 1936 yil 17 dekabr. 289-son.
6. Mafkura maydonida kurash masalasida maorif ishchilarining vazifasi // “Qizil O’zbekiston”. 1927 yil 16 yanvar, 13-son.
7. Mafkura maydonida kurash masalasida maorif ishchilarining vazifasi // “Qizil O’zbekiston”. 1927 yil 16 yanvar, 13-son.
8. Ziyolilarnı qanday qilib ishga solamiz // “Qizil O’zbekiston”. 1928 yil 30 aprel, 97-son.
9. Yunusova X. O’zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma’naviy jarayonlar (XX asr 80-yillar misolida). – Toshkent: “Abu matbuot-konsalt”, 2009. –B.25.
10. Sho’ro maktabi – kommunizmning chin maktabi // “Qizil O’zbekiston”. 1928 yil 28 aprel, 96-son.
11. Mafkura maydonida (Ikromov ma’ruzasi bo’yicha chiqarilgan qaror) // “Qizil O’zbekiston”. 1926 yil 5 may, 99-son.
12. Niqoblangan bir “tilchi” haqida // “Qizil O’zbekiston”. 1938 yil 4 yanvar, 3-son.
13. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug’at // Mualliflar: M.Abdullayev, M.Abdullayeva, F.Abdullayeva va boshq. To’ldirilgan uchinchi nashri. – Toshkent: “Sharq”, 2006. –B.179–180.
14. Tohir Qahhor. Hur Turkiston uchun. – Toshkent: “Cho’lpon”, 1994. –B.33.
15. <https://telegra.ph/KOMMUNIZM--OFAT-12-18>



Xusnida ERGASHEVA,
O'zMU tayanch doktranti
E-mail: ergasheva.xusnida@bk.ru

Qo'qon davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti dekani, PhD D.O'rinboyev taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF THE OIL INDUSTRY IN THE FERGHANA VALLEY IN 1940-1946

Annotation

The article considers the history of the development of the oil industry in the Ferghana Valley in 1940-1946. and it is shown that this branch of industry has its significance in the development of all sectors of society. During the Second World War, there were issues related to the development of the oil industry as a result of the processes of using new technologies in the extraction of oil from existing oil fields and the discovery and commissioning of new oil fields. The article is devoted to the history of the development of the oil industry in the Ferghana Valley in 1940-1946. based on archival documents of the funds of the Fergana State Archives, scientific research related to this topic, and includes conclusions on the topic.

Key words: Oil production, oil refining, dynamics of oil production rates, improvement of all industries, discovery and commissioning of new oil fields, development of mechanical engineering and transport.

РАЗВИТИЕ НЕФТЯНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ В 1940-1946 ГГ.

Аннотация

В статье рассмотрена история развития нефтяной промышленности Ферганской долины в 1940-1946 гг. и показано, что эта отрасль промышленности имеет свое значение в развитии всех слоев общества. В годы Второй мировой войны велись вопросы, связанные с развитием нефтяной промышленности в результате процессов использования новых технологий при добыче нефти из действующих нефтепромыслов и открытия и ввода в эксплуатацию новых нефтепромыслов. Статья посвящена истории развития нефтяной промышленности Ферганской долины в 1940-1946 гг. И включает выводы по теме на основе архивных документов, фондов Ферганского государственного архива, научных исследований, связанных с этой темой.

Ключевые слова: Добыча нефти, переработка нефти, динамика темпов добычи нефти, оздоровление всех отраслей промышленности, выявление и ввод в эксплуатацию новых месторождений нефти, развитие машиностроения и транспорта.

1940-1946-YILLARDA FARG'ONA VODIYSIDA NEFT SANOATINING RIVOJLANISHI

Annotatsiya

Maqolada 1940-1946 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoatining rivojlanish tarixi o'rganilib, sanoatning ushbu tarmog'i jamiyatdagi barcha sohalarining yuksalishida o'z ahamiyatiga ega ekanligi ko'rsatilgan. Ikkinchi jahon urushi yillarda mavjud neft konlaridan neftni qazib olinishida yangi texnologiyalarni qo'llanilish jarayonlari va geologik tadqiqotlar o'tkazilib yangi neft konlarini aniqlanishi hamda ishga tushirilishi natijasida neft sanoatining yuksalib borishi bilan bog'liq masalalar o'rganilgan. Maqola Farg'ona davlat arxivi fondlaridagi arxiv xujjatlari, ushbu mavzuga aloqador bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlari asosida Farg'ona vodiysida 1940-1946 yillarda neft sanoatining rivojlanish tarixiga bag'ishlanib, mavzuga doir xulosalarni ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Neft qazib olish, neftni qayta ishlash, neft qazib olish sur'atlari dinamikasi, sanoatning barcha sohalarini yuksaltirish, yangi neft konlarini aniqlanishi, ishga tushirilishi, mashinasozlik va transport sohalarining rivojlanishi.

Kirish. Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining rivojlanishida uglevodород yoqilg'isi hisoblangan neft va neft mahsulotlarining o'rni beqiyos hisoblanadi. XX asrda fan-texnikaning rivojlanishi, barcha sanoat tarmoqlarini yuksaltirish jarayonida yog'ilg'i energetikasiga bo'lgan talabning ortib borishi natijasida neftni qazib olish va qayta ishlash jarayonlari yuksalib bordi. Maqolada 1940-1946 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi o'rganilib, mazkur sohaning shu davrdagi holati, muammolari, faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan omillar yuzasidan bir qator tarixchi olimlar va soha mutaxassislarining bildirgan fikrlari, tadqiqotlari natijasida yaratilgan asarlari orqali mavzuni yoritishni maqsad qilib olgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1940-1946 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixini o'rganishda sovet davrida nashr qilingan mavzuga oid ilmiy risola va monografiyalar, tog'-kon sanoatining rivojlantirish uchun tuzilgan "O'zbekneft" trestining yillik hisobotlarida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanildi. Shu jumladan sovet davrida nashr qilingan S.K. Ziyadullaevning "Промышленность Узбекистана и основные экономические проблемы ее

развития", С.К.Зиядуллаев "Индустрия советского Узбекистана", А.Р.Мухидов, Т.Т.Тожиёвнинг "O'zbekistonning qora oltini", А.Р.Ходжаев, П.К.Савченко, П.К.Азимовларнинг "Минеральные топливные ресурсы Узбекистана и экономика их использования", Х.Д.Жураевнинг "Промышленность Узбекистана. Темпы структура эффективность", С.К.Зиядуллаев, И.Манохиларнинг "Социалистическая промышленность советского Узбекистана", К.Н.Бедринсев, В.А.Десыатчиковларнинг "O'zbekiston sanoati 30 yil ichida", D.A.Katrenkoning "Qora oltin" nomli monografiyasi, Farg'ona davlat arxivi R-837-fondining yig'ma jildlarida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada 1940-1946 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoatining rivojlanish tarixini o'rganishda qiyosiy, tahliliy usullardan foydalanib, mavzuni yoritib berildi. Mazkur masalani o'rganishda mavzuga oid bo'lgan asarlardan, ilmiy tadqiqot ishlaridan, arxiv materiallaridan foydalanilgan holda xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Analysis and results. Neft va neft mahsulotlaridan insoniyat qadim zamonlardan foydalana boshlagan. Shuning uchun ham uni turli nomlar bilan atalgan. Jumladan, neftni “qora oltin”, “suyuq oltin”, “qora qon”, “qora moy” [6] deb nomlashgan va aholi o'z ehtiyojlari uchun foydalanib kelgan. Farg'ona vodiysida neftdan sanoat darajasida foydalanish XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelgan bo'lsa, bu jarayon XX asrning 40-yillarida ya'ni, ikkinchi jahon urushi yillarida yanada rivojlanib bordi. Farg'ona vodiysida neft sanoatining 1940-1946 yillarda tez sur'atlar bilan rivojlanib borishiga bir nechta omillar sabab bo'ldi. Birinchidan 1940-1946 yillarda ikkinchi jahon urushi tufayli butun dunyoda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham ko'plab texnika va texnologiyalardan foydalanish natijasida yoqilg'iga bo'lgan talab ortib bordi. Shuning uchun imkon qadar ehtiyojni qoplash maqsadida ko'p miqdorda neft qazib olishni yo'lga qo'yildi. Ikkinchidan sobiq sovet davlatining urush maydonlari hisoblangan hududlardan ko'plab sanoat korxonalarini, jumladan, Azarbayjonning Boku va Grozniy shaharlarida joylashgan yirik neft korxonalarini, shu bilan birga neft sanoati sohasidagi yetuk mutaxassislarni, neft sanoatini kadrlar bilan ta'minlaydigan Grozniy neft institutini Farg'ona viloyatining Qo'qon shahridagi neft texnikumiga ko'chirib keltirilishi, uchinchidan Farg'ona viloyatining Qo'qon shahrida 1919 yilda mexanika texnikumi tashkil etilgan bo'lib, unda teplotexniklar, mexaniklar, paxta tozalash va yog'moy zavodlari uchun mutaxassis tayyorlaydigan o'quv yurtini 1935 yilda neft texnikumiga aylantirilib, neft sanoati uchun o'rta texnik ma'lumotli geolog, geofizik, parmalovchi, qazib oluvchi, energetiklar tayyorlana boshlangani ham aynan mana shu yillarda respublikada hamda Farg'ona vodiysida neft sanoati sezilarli darajada o'sib borishiga sabab bo'ldi. Maqolada keltirilgan 1940-1946 yillar davriy chegarasida respublikada qazib olingan neftning asosiy ulushini Farg'ona vodiysidan qazib olingan neft tashkil qilgan. Jumladan, 1940 yilda Farg'ona vodiysidan qazib olingan neft respublika bo'yicha qazib olingan neftning 54,6 foizini [2] tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich avvalgi yillarga nisbatan qiyoslanganda neft qazib olish sur'atlari bir nechta barobar

ortganini bildiradi. Masalan, 1940 yilda respublikada neft qazib olish va qayta ishlash 1913 yilga nisbatan taqqoslanganda 21 baravarga ortgan [5], ya'ni 1913 yilda jami 13 ming tonna neft qazib olingan bo'lsa, 1940 yilda 119 ming tonna neft qazib olingan. Respublikada 1941-1945 yillarda neft qazib olish 1,87 marta ko'paydi. Bu ko'rsatkich 1940 yilga nisbatan taqqoslanganda ikki barobar ortganligini ko'rsatadi[5].

Farg'ona vodiysida neft sanoatining tez sur'atlar bilan rivojlanib borishiga yana Farg'ona viloyatining Qo'qon shahrida joylashgan neft texnikumiga Grozniy neft institutining ko'chirib keltirilishi ham sabab bo'lgan. Chunki Grozniy neft institutining yetuk mutaxassis olimlari, o'qituvchilari ham kelib shu texnikumda dars bera boshlagan. Jumladan, I.Gaydukov, V.Permyakov, A.Parnitskiy kabi taniqli neft sohasi olimlari kelib texnikum talabalariga dars bergan va hatto ular Grozniy instituti ko'chirib ketilgandan so'ng ham bu yerda qolib ishini davom ettirgan. Shuning uchun ham respublikada 1945 yilda neft qazib olish 2,5 baravarga ortgan. Farg'ona vodiysida neft qazib olish esa 3,3 marta ortgan [8].

1940 yillarda Farg'ona vodiysi va Surxondaryo viloyatida joylashgan yangi neft konlarini aniqlanishi va ishga tushirilishi neft qazib olinishini keskin ravishda orttirib yubordi. 1945 yillarda urush davom etayotgan vaqtlarda neft qazib olish 1940 yillarga nisbatan 4 marta ortgan [4].

Neft qazib olish va qayta ishlash sur'atlari ikkinchi jahon urushining so'nggi yillariga kelib yanada ortdi. Neftni qayta ishlash jarayoni 1940 yilda 1,7 million rublni, 1945 yilda 16,2 million rublni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 1945 yilda 1940 yilga nisbatan taqqoslanganda 9,53 marta ortiq ekanligini ko'rsatadi [3].

Farg'ona vodiysida 1941 yilda neft qazib olish 331 ming tonnani tashkil etgan. 1945 yilga kelib esa bu ko'rsatkich 3,3 martaga oshdi. Ya'ni, 1941-1945 yillarda Farg'ona vodiysidan qazib olingan neft mahsuloti 37 yil vaqt davomida olingan neft mahsuloti bilan tenglasha olgan [7].

Urush yillarida Farg'ona vodiysidan qazib olingan neft ko'rsatkichlari quyida keltirilgan 1-diagrammada o'z aksini topgan [11.]:




1- diagramma

Geologiya-qidiruv ishlari natijasida Farg'ona vodiysi va Surxondaryo viloyatida katta neft zaxiralari mavjudligi aniqlandi. Bu konlardan 1940 yilda 119 ming tonna, 1945 yilda 478 ming tonna neft qazib olindi [3]. Neft mahsulotlariga bo'lgan talab ikkinchi jahon urushi yillarida ortib bordi. Chunki urush tufayli yoqilg'iga bo'lgan ehtiyoj ortib bordi. Urushga jalb qilingan avtomobillarni yoqilg'i bilan ta'minlash uchun ham bu sohaga e'tibor qaratilgan. Shuning uchun neft sanoati oldingi yillarga nisbatan olib qaralganda shiddat bilan ortib borgan. Ikkinchi jahon urushida 40 million avtomobil va tortuvchi mashinalar, 150 ming tank,

200 ming aeroplanlar qatnashganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud [6].

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda neft sanoatining barcha tarmoqlari rivojlantirildi. Neft sanoati tarmoqlari tarkibiga geologiya-qidiruv tashkilotlari, qurilish trestlari, ikkita neft qazib olish tresti, neftni qayta ishlash zavodi, ozokerit ishlab chiqarish zavodi, neft mashinasozligi zavodi va neft uskunalarini ta'mirlash zavodi kabilar kiradi [1].

1945-1946 yillarda Farg'ona vodiysidagi mavjud neft konlaridan qazib olingan neftning miqdori quyidagi keltirilgan 2-diagrammada ko'rsatilgan [10]:




2- diagramma

Respublikada 1946 yilda neft qazib olish 1945 yilga nisbatan qiyoslanganda 51,5 foizga ortdi [5. – S.83.]. 1946 yilda Farg'ona vodiysidan qazib olingan neftni Vannovskiy neftni qayta ishlash zavodida qayta ishlanishi natijasida 1905

tonna xom neft, 52 tonna benzin, 47 tonna kerosin, 200 tonna solyarka mahsulotlari olingan [9].

O'zbekistonda 1940 yildan 1946 yilgacha bo'lgan davrda neft qazib olish sur'atlarini o'sish dinamikasini quyidagi 3-diagramma orqali kuzatishimiz mumkin [8]:



3- diagramma

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 1940-1946 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati sezilarli darajada o'sib bordi. Bu jarayonga yuqorida aytib o'tilgan omillar o'z ta'sirini ko'rsatgan. Neftga bo'lgan talabning ortib borishi natijasida yangi neft konlari qidirib topish ishlari ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, buning natijasida Farg'ona vodiysidan va O'zbekistonning janubiy viloyati hisoblangan Surxondaryodan ko'plab yangi neft konlari topilib, ishga tushirilgan. Jumladan, Farg'ona vodiysida joylashgan Andijon neft koni 1941 yilda, Polvontosh neft koni 1942

yilda, Janubiy Olamushuk neft koni 1944 yilda aniqlangan va ishga tushirilgan. Surxondaryo viloyatidagi geologik qidiruv ishlari natijasida 1939 yilda Ko'kaydi neft koni ochilgan. Ushbu neft koni 1940 yildan ishga tushirilgan. Bundan tashqari yana 1942 yilda Lalmikor neft koni aniqlangan va ishga tushirilgan. Yangi neft konlarini aniqlanishi va ishga tushirilishi hamda ikkinchi jahon urushi tufayli yoqilg'iga bo'lgan ehtiyoj sababli ham ushbu davrda neft sanoatining avvalgi yillarga nisbatan tez sur'atlar bilan o'sib borishiga sabab bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Бедринцев К.Н., Десятчиков Б.А. Ўзбекистон саноати 30 йил ичида. – Т.Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти.1955. – 26 б.
2. Жураев Х.Д. Промышленность Узбекистана. Темпы структура эффективность. – Т.Узбекистан.1974. – S.169.
3. Зиядуллаев С.К. Промышленность Узбекистана и основные экономические проблемы ее развития. – Т.1967. – S.68.
4. Зиядуллаев С.К. Индустрия советского Узбекистана. – Т.1984. – S.136.
5. Зиядуллаев С., Манохин И. Социалистическая промышленность советского Узбекистана. – Т.1949. – S.57, 67, 83.
6. Катренко Д.А. Қора олтин.Ўзбекистон ССР давлат нашриёти. – Т.1950. – 3 б.
7. Муҳидов А.Р., Тожиёв Т.Т.Ўзбекистоннинг қора олтини. –Т. Фан.1972. – 22-26 б.
8. Ходжаев А.Р., Савченко П.К., Азимов П.К. Минеральные топливные ресурсы Узбекистана и экономика их использования. – Т.1972. – S.107, 110.
9. Farg'ona davlat arxivi R-837-fond, 1-ro'yxat, 630-yig'ma jild, 80-varaq.
10. Farg'ona davlat arxivi R-837-fond, 1-ro'yxat, 632-yig'ma jild, 1-varaq orqasi.
11. Farg'ona davlat arxivi R-837-fond, 1-ro'yxat, 632-yig'ma jild, 7-varaq orqasi.